

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

ФАРҒОНА ПОЛИТЕХНИКА ИНСТИТУТИ

“МЕНЕЖМЕНТ” КАФЕДРАСИ

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИ

**Мавзу: Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози шароитида
ишлаб чиқариш корхонаси фаолияти самарадорлигини
ошириш йўллари (“Фарғона дон маҳсулотлари ” ОАЖ
мисолида)”**

Бажарди:

54 – 09 М гуруҳ талабаси

Махмудов А

Илмий рахбар:

Ж.Х.Қамбаров

Фарғона – 2013 й.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1 Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ishlab chiqarish korxonasi samaradorligini oshirishning ahamiyati.....	7
1.1 Samaradorlikning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va tushunchasi.....	7
1.2 Korxonada ishlab chiqarish samaradorligining mezonlari va ko'rsatkichlari.....	13
1.3 Ishlab chiqarish korxonasi samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar va ularning xususiyatlari.....	23
2 Ishlab chiqarish korxonasi samaradorligi aniqlovchi ko'rsatkichlar holati va uni baholash.....	33
2.1 "Farg'ona Don maxsulotlari" OAJ ning iqtisodiy ko'rsatkichlari taxlili.....	33
2.2 "Farg'ona Don maxsulotlari" OAJ ning moliyaviy ko'rsatkichlari taxlili.....	39
3 "Farg'ona Don maxsulotlari" OAJ faoliyati samaradorligini oshirish yo'nalishlari.....	54
3.1 Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ishlab chiqarish korxonalari samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari.....	54
3.2 Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash - samaradorlikni oshirishning muhim omili.....	58
Xulosa.....	67
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	69

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Mamlakatimiz inson manfaatlari, huquq va erkinliklari yuksak qadriyat bo'lgan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyat barpo etish yo'lidan izchil rivojlanib bormoqda. Iqtisodiyotimizning turli soha va tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblikning kuchayishi hamda barqaror o'sish sur'atlarining ta'minlanishi natijasida aholi daromadlari, turmush darajasining sezilarli ravishda oshishi ertangi kunga bo'lgan ishonchimizning tobora mustahkamlanib borishiga zamin yaratmoqda.

Prezidentimiz jahon moliyaviy inqirozi ro'y bergan dastlabki palladayoq uning ta'sir darajasi, ko'lami va keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlariga yetarli baho berib, "jahon moliyaviy inqirozidan imkon qadar tez chiqish, uning oqibatlarini yengillashtirish ko'p jihatdan har qaysi davlat doirasida va umuman, dunyo hamjamiyati miqyosida qabul qilinayotgan chora- tadbirlarning qanchalik samaradorligiga, ularning bir-biri bilan uyg'unligiga bog'liq"¹, deb xulosa chiqargan edi. Bunday haqqoniy xulosalar asosida O'zbekistonda 2008 yilning o'zida Inqirozga qarshi choralar dasturi ishlab chiqilib, unda belgilangan tadbirlarni izchil ravishda amalga oshirishga kirishildi.

Yurtimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida qo'lga kiritilayotgan yuksak natijalar, eng avvalo, yangidan-yangi zamonaviy tarmoq va ishlab chiqarish quvvatlarining yo'lga qo'yilishi, buning ta'sirida mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatining sezilarli darajada ortib borayotgani, yaratilayotgan mahsulot va ko'rsatilayotgan xizmat turlarining ko'payib, sifatining tubdan yaxshilanib borishi, bir so'z bilan aytganda, iqtisodiyotimizning yangicha mazmun va mohiyat kasb etib borishida mustaqil taraqqiyot yo'lining to'g'ri tanlangani, amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat

¹Islom Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009, 6-b.

strategiyasining har tomonlama puxta asoslangan hamda xalqimizning fidokorona mehnati eng muhim va asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston davlatining qudratini mustahkamlash, aholining moddiy va ma'naviy ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish, kelajakda esa, ularni mo'l-ko'l yaratish, iqtisodiy va ilmiy-texnika sohasida eng rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishda ishlab chiqarish korxonalari samaradorligiga bevosita bog'liqdir.

SHu sababli ham, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ishlarish korxonalari samaradorligini oshirish jiddiy masalalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizni mustaqillikka erishganligi, qudratli iqtisodiy va ilmiy-texnik salohiyat yaratilayotganligi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning takomillashayotganligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalarini birinchi o'ringa qo'yadi. Binobarin, Respublikamiz Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimov o'z ma'ruzasida "2013 yil va yaqin kelajakka mo'ljallangan dasturimizni amalga oshirishda iqtisodiyotimiz va uning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik hamda texnologik jihatdanyangilashni jadallashtirish va uning kulamini kengaytirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish markaziy o'rin tutishi darkor"¹, deb ta'kidlashi bejiz emas. SHu bois ishlab chiqarish korxonalari samaradorligini oshirish masalalarining nazariy va amaliy asoslarini o'rganish va natijalarni amaliyotda qo'llash chora - tadbirlarini izlab topish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Ishlab chiqarish korxonasi samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarning mohiyati va ularni amalga oshirish

¹ Karimov I.A. Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli isloxotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.

// Xalq so'zi, 2013 yil, 18 yanvar.

imkoniyatlarini nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish va korxona faoliyatiga tadbiq etishga doir tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifasi. Bitiruv malakaviy ishida qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olinadi:

- ishlab chiqarish korxonasida samaradorlikning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va tushunchasi nazariy asoslarini o'rganish;

- ishlab chiqarish samaradorligining mezoni va asosiy ko'rsatkichlari;

- ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va uning muhim jihatlarini ochib berish;

- ishlab chiqarish korxonasi iqtisodiy samaradorligi holati va uni oshirish imkoniyatlari;

- korxona faoliyatidan kelib chiqqan holda samaradorlik ko'rsatkichlarini taxlil qilish;

- ishlab chiqarish korxonasi faoliyati samaradorligini oshirish va uni takomillashtirish bo'yicha tavsiya va takliflar ishlab chiqish.

Mavzuni o'rganilganlik darajasi. Ishlab chiqarish korxonalarida samaradorlikni oshirish masalalarini respublikamizdagi bir qator olimlar M.SHarifxo'jaev, Yo.Abdullaev, A.Ortiqov, SH.Xolmo'minov, SH.Zaynutdinov va boshqalarning asarlarida nazariy jihatlarini yoritilgan va tadqiqotlar olib borilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti va predmeti. Farg'ona viloyati, "Farg'ona-Don maxsulotlari" OAJ, uning mavzuga oid ma'lumotlari, hisob va hisobotlari hisoblanadi. Mamlakatimiz korxona korxonalarining innovatsion faolligini oshirish va raqobatbardoshligini ta'minlash ishning predmeti bo'lib hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining uslubiy asoslari bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari, Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, shuningdek, mavzuga oid respublika va xorijiy

mamlakatlarda chop etilgan o'quv, ilmiy, uslubiy adabiyotlar, jurnal va ro'znomalar, internet ma'lumotlari xizmat qildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi ishlab chiqarish korxonasi faoliyatida samaradorlikni oshirishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish va korxonalar ishlab chiqarish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amaliyotga qo'llashga doir amaliy tavsiyalarni berishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati "Farg'ona-Don maxsulotlari" OAJda samaradorlikni oshirish hamda uni boshqarish masalalarini nazariy jihatdan o'rganish va o'rganish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni hal etishga doir amaliy tavsiyalarni berish hamda tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat bo'lib, ulardan ushbu korxonalarning boshqaruv tizimini takomillashtirish va isloh qilishda foydalanish mumkinligi bilan ifodalanadi.

1. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ishlab chiqarish korxonasi samaradorligini oshirishning ahamiyati

1.1. Samaradorlikning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va tushunchasi

Rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatni iqtisodiy strategiyasi uzoq vaqtga mo'ljallangan fundamental maqsadlarni o'rta qo'yish bilan bir qatorda, bu maqsadlarga erishish vositalari, yo'llarini belgilashni ham o'z ichiga oladi. Bular orasida ishlab chiqarish samaradorligini to'xtovsiz oshirib borish asosiy o'rinda turadi. Har qanday jamiyatda ham ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish iqtisodiy taraqqiyotning asosini yaratadi.

O'zbekiston davlatining qudratini mustahkamlash, aholining moddiy va ma'naviy ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish, kelajakda esa, ularni mo'l-ko'l yaratish, iqtisodiy va ilmiy-texnika sohasida eng rivojlangan davlatlar qatoridan joy olish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga bevosita bog'liqdir.

SHu sababli ham, iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitida ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish jiddiy masalalardan biri hisoblanadi. Hozirgi paytda ko'pgina resurslar chegaralangan, ularning aksariyati (metall, qurilish materiallari va boshqalar) xorijdan keltiriladi. SHuning uchun mavjud resurslardan oqilona foydalanishga, mehnat unumdorligini oshirish, milliy va xorijiy sarmoyalarni ustuvor sohalarga joylashtirish kabi samaradorlikni oshirish vositalariga yetarli darajada e'tibor berish talab qilinadi.

Mustakillikka erishilganligi, qudratli iqtisodiy va ilmiy-texnik salohiyatni yaratilayotganligi, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarning takomillashayotganligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalarini birinchi o'ringa ko'ydi. Binobarin, Respublika Prezidentining ma'ruza va nutqlarida, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida ishlab chiqarishning, jumladan, korxona ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishning mohiyati va ahamiyati,

dolzarb muammolari, iqtisodiyotni ekstensiv va intensiv taraqqiyot yo'liga o'tkazish munosabati bilan kelib chiqadigan ustuvor vazifalar chuqur va har tomonlama tahlil etib berilmoqda.

Ma'lumki, ishlab chiqarishni rivojlantirishda ikki xil omil- mikdor va sifat, ekstensiv va intensiv, ya'ni kengaytiruvchi (uzaytiruvchi) va zo'r beruvchi, kuchaytiruvchi omillar harakatda bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, agar ishlab chiqarish sohasi kengaytirilsa, ekstensiv suratda kengaygan takror ishlab chiqarish bo'ladi; agar yana ham ko'proq samara beradigan ishlab chiqarish vositalari qo'llaniladigan bo'lsa, intensiv suratda kengaygan takror ishlab chiqarish yuzaga keladi.

O'zbekiston korxonaida ana shu ikki yo'ldan oqilona foydalanish natijasida ishlab chiqarishning samaradorligi bosqichma-bosqich o'sib bormoqda.

Samaradorlik - eng ko'p uchraydigan umumiy tushunchapardan biri bo'lib, iqtisodiy - ijtimoiy taraqqiyotning xilma-xil sohalarida juda keng ishlatiladi. Masalan, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat samaradorligi, o'qish va o'qitish samaradorligi, davolash va davolanish samaradorligi, qabul qilingan qonun va qoidalar hamda yechimlarning samaradorligi va hokazolar.

"Samaradorlik" so'zi "natija" degan ma'noni beradi. Korxonalar iqtisodiyotiga, bag'ishlangan aksariyat adabiyotlarda ishlab chiqarishning faqatgina iqtisodiy-samaradorligi haqida so'z ketadi. Holbuki, mamlakatda ro'y beraetgan ijtimoiy o'zgarishlar kishilarning e'tiborini jalb qilmoqda va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'rganish va ularga baho berish zaruriyatini tug'dirmoqda. Bugungi kunda ishlab chiqarishning ham iqtisodiy, ham ijtimoiy samaradorligini o'rganish o'ta muhimdir. Ular o'zaro uzviy bog'liq va bir-birini taqozo etadigan kategoriyalardir.

Samaradorlik korxona ishlab chiqarish faoliyatining "ko'zgusi" hisoblanadi. Bu «ko'zgu»da ishlab chiqarishning barcha natijalarini ko'rish

mumkin. Ma'lumki, har bir tarmoq, korxona, qolaversa, har bir shaxs o'z ishlab chiqarysh faoliyatida maksimum foyda olishga intiladi. Buning uchun ma'lum xarajatlar qiladi. Ana shu foyda bilan xarajatlar o'rtasidagi farq tarmoq va korxona faoliyatining «ko'zgusi» bo'lgan samaradorlikda ko'zga tashlanadi. Ishlab chiqarishning eng yuqori samaradorligi ishlab chiqarish xarajatlarini minimum darajaga keltirishdan iborat.

Bozor munosabatlari sharoitida samaradorlikning alohida o'rni mavjud.

Bozor iqtisodiyoti natijalilikni, foydalilikni taqozo etadi. Tartibli bozorga asoslangan iqtisodiyotda eng kam resurs sarflab, ko'p natijaga erishish zarur. Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida 5 turdagi resurslar tizimi harakatda bo'ladi: a) moddiy resurslar; b) mehnat resurslari; v) moliyaviy resurslar; g) energetik resurslar; d) axborot resurslari; ya'ni informatsion resurslar.

Mana shu resurslardan oqilona foydalanib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkin. Bunday faoliyat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'nalishida muhim ahamiyat kasb etadi. Korxona ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishning aniq-ravshan yo'nalishlari Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlarida ko'rsatib berilgan.

Samaradorlik — bu, foydalilik, natijalilikdir. Ma'lumki, qandaydir natija olish uchun mehnat qilish, ishlash, mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish va ma'lum miqdorda xarajat qilish kerak.

Samaradorlik, avvalo, korxona faoliyatining sifat jihatlarini tavsiflovchi tushunchadir. U "samara" toifasidan kelib chiqadi hamda unga qaraganda murakkab va majmua tavsifiga ega.

Samaradorlikni aniqlash uchun natijani shu natijaga erishishga sarflangan xarajatlar yoki resurslar bilan taqqoslash kerak. Demak,

samaradorlik ishlab chiqarish faoliyati natijalar bilan ularga erishish uchun sarflangan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslarning o'zaro nisbatidir.

Samaradorlik chora sifatida ko'plab texnik, iqtisodiy, loyiha va xo'jalik qarorlarini avvaldan belgilab beradi. Korxona o'zining xo'jalik, ilmiy-texnik va investitsion siyosatini belgilashda samaradorlikdan kelib chiqadi. Iqtisodiy samaradorlik samaradorlikka qaraganda, bir muncha tor ma'noni anglatadi. U qabul qilinayotgan qarorlarning xo'jalik yuritishda maqsadga muvofiqligini tavsiflaydi hamda barcha hollarda samaraning unga erishish uchun ketgan xarajatlar (ishlab chiqarish resurslari)ga nisbati sifatida aniklanadi. Xarajatlar qanchalik kam bo'lsa (mahsulot sifatiga ta'sir qilmagan holda), samara shunchalik ortadi, demak, iqtisodiy samaradorlik ham ortadi.

$$S = \text{natija} / \text{xarajatlar} = \text{natija} / \text{mehnat, moddiy va moliyaviy resurslar}$$

Ishlab chiqarishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradordigini farklaydilar. Samaradorlikni iqtisodiy va ijtimoiy turlarga bo'lish shartli bo'linish hisoblanadi. Moddiy ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan va mehnat xarajatlari bilan bog'liq bo'lgan natijalarning hammasini iqtisodiy va ma'lum ma'noda, ijtimoiy samara deb aytish mumkin.

Bu yerda shuni eslatib o'tish kerakki, iqtisodiy va ijtimoiy tushunchalarning sun'iy bo'linishi haqida bahslashish mumkin. Lekin, iqtisod ijtimoiy hayotdan tashqarida bo'lmagani kabi, ijtimoiy hayot ham iqtisodsiz bo'lmaydi. Demak, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Chunki amalga oshirilgan har bir ishni ayni vaqtda ham iqtisodiy, ham ijtimoiy samara keltiradi.

Iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarishning iqtisodiy natijasini ko'rsatadi. Masalan, mahsulot ishlab chiqarish — boshqaruv, yangi texnika va texnologiyani joriy etish, mehnat sifatini oshirish va hokazolarning natijasi. Iqtisodiy samara — material, mehnat, pul va boshqa resurslarni tejash tufayli erishilgan miqdor. U vaqtni tejash, qurilish muddatlarini qisqartirish, mehnat sarfini tejash, ish vaqtining

zoe ketishini kamaytirish, mablag'lar oborotini tezlashtirish, maxsulot yetishtirish hajmini o'stirish, ishlar sifatini yaxshilash va boshqa natijalar bilan tavsiflanadi.

Ijtimoiy samaradorlik shaxsning har tomonlama kamol topishiga yordam beradigan tadbirlarni amalga oshirish samaradorligini ifodalaydi. U mehnat va turmush sharoitlari yaxshilanishida, xodimlar malakasini oshirishda aks etadi va asosiy oziq-ovqat, korxona tovarlarining aholi jon boshiga iste'mol qilinishi, ijtimoiy iste'mol fondlaridan beriladigan nafaqa va imtiyozlar, kadrlar tayyorlash bo'yicha xarajatlarning o'sishi bilan tavsiflanadi. Ushbu samaralar ishlab chiqarishning o'zida vujudga kelayotganini va birlashib bajarilgan mehnat tufayli ishlovchilar o'rtasidagi munosabatlar ta'riflanishini nazarda tutsak, ularni ijtimoiy-iqtisodiy samara deb atasak bo'ladi.

Ishlab chiqarish samaradorligi har bir korxona faoliyatining eng asosiy vazifasi hisoblanadi. U xo'jalik yuritishning sifat va miqtsor ko'rsatkichlarini, shuningdek, buyumlashgan va jonli mehnat xarajatlari hamda olingan natijalar o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi.

Afsuski, bozor sharoitlarida "samaradorlik" tushunchasi, garchi, daromad olish, xarajatlarni kamaytirish, mehnat samaradorligining o'sishi, fond qaytimi, rentabellik va hokazolar samaradorlik tabiatiga mos kelib, bozor iqtisodiyoti talablariga zid kelmasada, baho, foyda, daromad, xarajat kabi tushunchalarga qaraganda kam ko'llanilmokda. Samarali ishlash degani o'z mohiyatiga ko'ra, mo'ljallangan (rejalashtirilgan) foydani olish, noishlab chiqarish xarajatlari va yo'qotishlarni kamaytirish, ishlab chiqarish kuvvatlari va ishchi kuchidan yaxshiroq foydalanish, mehnat samaradorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini yaxshilashni anglatadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish samaradorligini mehnat sharoitlarini, uning ijodkorlik mazmunini boyitish, aqliy va jismoniy mehnat o'rtasidagi farqni yo'qotishni inobatga olgan holda tavsiflaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy

samaradorlik bir vaqtning o'zida, ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish, korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, shaxsning har tomonlama rivojlanishi va uning barcha qobiliyatlaridan foydalanishning sabab va natijasi hisoblanadi. Bevosita ijtimoiy samara, xodimlarning bilim va malakasi, tajriba va madaniyatining o'sishi, aholi sog'lig'ining yaxshilanishi va umr ko'rishining uzayishida aks ettiriladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarning qondirilishi - inson kamolotining yuksalishi, moddiy va ijtimoiy farovonligining o'sishi, madaniy va ma'naviy jihatdan rivojlanishida ko'rinadi. Inson farovonligi hamda kamoloti naqadar yuksalsa, shu kadar yuqori ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikka erishgan bo'ladi.

Ishlab chiqarish samaradorligi ijtimoiy samaradorlikka nisbatan birlamchi hisoblanadi: iqtisodiy yutuqlar korxonaning ijtimoiy muammolarini hal qilishga yordamlashadi. Masalan, foydaning o'sishi, jamg'armalarning ortishi korxonaga ijtimoiy vazifalar doirasini kengaytirish va ularni hal qilish imkonini beradi. Biroq samaradorlik va uning asosiy ko'rsatkichi - foyda (daromad) o'z-o'zidan, avtomatik ravishda yuzaga kelmaydi. Turli korxonalarda samaradorlikka erishish uchun mavjud ishlab chiqarish quvvatlari va boshqa xususiyatlardan kelib chiqqan xolda, turli vosita va yo'llardan foydalaniladi. Bunda vaqt omili, ya'ni samaradorlikka qisqa yoki uzoq muddatlarda erishishni mo'ljallash, asosiy rollardan birini o'ynaydi. Masalan, korxona olayotgan foydasini qisqa vaqt mobaynida mahsulot sifatini yaxshilashni mablag' bilan ta'minlash, ishlab chiqarishni qayta qurollantirish va modernizatsiya qilish, xodimlar malakasini oshirishga ajratilayotgan mablag'larni kamaytirish yo'li bilan ko'paytirishi mumkin. Uzoq muddatli rejalarda esa bu, foydaning kamayishiga va hattoki korxonaning bozordagi o'rnini yo'qotishi natijasida bankrotga uchrashiga olib kelishi mumkin.

Xorijiy firma va korxonalar o'z faoliyatlarida samaradorlikka erishish uchun ishlab chiqarish texnika va texnologiyalariga e'tiborni kuchaytirishdan tashqari, mahsulot sifatini oshirish va uni reklama qilishga alohida e'tibor qaratmoqdalar.

Yukorida aytilganlardan kelib chiqadiki, samara va samaradorlik qotib qolgan kategoriyalar qatoriga kirmaydi hamda fakatina pul ko'rinishida o'lchanmaydi. Samaradorlik va sifatli mehnat tufayli korxona birinchidan, o'zining iqtisodiy barqarorligi va bozordagi raqobatchilikka bardosh berishini ta'minlaydi, ikkinchidan, o'z imqdjini yaxshilaydi va hamkorlar bilan aloqalarini mustaxkamlaydi, uchinchidan, xodimlarning iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini yaxshilaydi. Demak, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llarini qidirish, xarajat va natijalarni to'g'ri solishtirish, mulkchilik shakli, qaysi tarmoqqa tegishliligi, xududiy joylashishi va faoliyat turidan qat'iy nazar, har bir korxona uchun muhim vazifa hisoblanadi.

1.2. Korxonada ishlab chiqarish samaradorligining mezonlari va ko'rsatkichlari

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish — korxona rahbariyatining doimiy vazifasidir. Bu vazifani yechish amaliyotda quyidagi omillar bilan bog'liq bo'ladi:

- bozor talablariga javob beruvchi yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishda eng kam xarajatlarni bilan ishlab chiqarishning maksimal hajmini ta'minlovchi, optimal ishlab chiqarish jarayonini tanlash;
- iste'molchilarni talabini qondirishga yo'naltirilgan mahsulotni sotish va yuqori daromad (foyda) olish;
- aylanma vositalarni tejash imkoniyatini yaratuvchi optimal ishlab chiqarish zahiralarni yaratish.

Xo'jalik samaradorligini oshirish omillarining yuqorida sanab o'tilgan har biri, faoliyat yuritishning turli shakl va ko'rinishlari yordamida, ishlab chiqarish

samaradorligi asosida yotuvchi xarajatlar va resurslarning o'zaro aloqasini inobatga olgan holda amalga oshiriladi (1-jadval).

Ishlab chiirishning iqtisodiy samaradorligi murakkab kategoriyadir. Unda ishlab chiqarish natijalariga hamda xarajatlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar mujassamlangandir. Unda ishlab chiqarish natijalarining o'sishi, mahsulot sifatining yaxshilanishi hamda mahsulot assortimenti tuzilishining ijtimoiy ehtiyojlar tuzilishiga to'g'ri kelishida o'zining aksini topadi.

1-jadval.

“FDM” OAJ da mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishdagi xarajatlar va resurlarning o'zaro aloqasi (“FDM” ma'lumotlari asosida)

Moddiy va buyumlashgan		PUL shaklida	
Resursar	Xarajatlar	Resurslar	Xarajatlar
Ishchi kuchi soni	Mehnat (sifat va miqdor)	Mehnat haqi fondi	To'langan oylik miqdori, jumladan, mukofot va qo'shimchalar
Bino, inshoot, mashina va uskunalar (mehnat qurollari)	Mehnat kurollarining eskirish	Asosiy kapital	Amortizatsiya ajratmalari
Mehnat predmetlari	Iste'mol, talab, materiallar, yoqilgi, energiya va hokazo	Aylanma kapital	Sarflangan xom ashyo, material va hokazolar qiymati
Tayyor mahsulot	Dizayn, reklama, qadoqlash, tovar yo'qotishlar	Muomala fondlar	Qo'shimcha xarajatlari (qiymat)
		Pul mablag'lari	Kredit uchun fond

Ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi o'sishining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- mahsulot sifati va tarkibining yaxshilanishi;

- jonli mexnat unumdorligning o'sishi;
- material sarfining kamayishi;
- fond samarasining oshishi.

Mezon masalasi iqtisodiy samaradorlik nazariyasining eng muhim sohasi hisoblanadi. Falsafiy ma'noda mezon-bu, asosiy o'lchov, muhim farqli belgi, asosiy nukta nazardir. SHular asosidagina u yoki bu sohadagi bizning bilimlarimizning ob'ektiv haqiqatligini, to'g'riligini va ishonchliligini aniqlash, hakikatni anglashmovchiliklardan farq qilish mumkin.

Ishlab chiqarishning asosiy maqsadiga erishish uchun barcha resurslardan oqilona foydalanish, tayyorlanadigan mahsulotning har bir birligiga sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish kerak. Demak, samarani o'lchaganda mezon sifatida jami ijtimoiy mehnatni tejash, uning unumdorligini oshirish qabul etiladi.

Ishlab chiqarishning umumiy (mutlaq) samaradorligi deganda, xarajatlar va resurslarning ayrim turlari bilan solishtirilgan yoki taqqoslangan iqtisodiy samaraning umumiy miqtsori tushuniladi.

Ishlab chiqarishning umumiy samaradorligi xarajatlar va resurslarning ayrim turlaridan foydalanish darajasini aniqlash va baholash uchun ko'llaniladi va umuman, xalk xo'jaligi bo'iicha, tarmokdar, korxonalar, kapital qurilish ob'ektlari bo'yicha hisoblab chiqiladi. Bunday samaradorlikni anikdash xarajatlar va resurslar samaradorligi darajasini, samaradorlikning asosiy yig'imlarini aks etgiruvchi differentsiyalangan ko'rsatkichlarni hisoblab chiqishga asoslanadn. Bunday ko'rsatkichlarga ishlab chiqarishning yoki unda tayyorlanadigan mahsulotning mehnat sig'imi, material sig'imi, fond sig'imi, kapital sig'imi kiradi.

Ishlab chiqarish samaradorligini baholash, korxonada foydalaniladigan resurs turlari bo'yicha amalga oshirilishi va miqtsor jihatidan o'lchanishi mumkin. Masalan, ishchi kuchidan foydalanish samaradorligini mehnat unumdorligi va

mahsulotning mehnat sig'imi ko'rsatkichlari yordamida quyidagi formula asosida baholash mumkin:

$$\mathbf{Mu=Q/Is}$$

Bu yerda: Mu - mehnat unumdorligi;

Q - mahsulot hajmi qiymat ko'rinishida;

Is - ishlovchilar (ishchilar) soni.

Mahsulotning mehnat sig'imi mehnat unumdorligiga teskari kattalik bo'lib, sarflangan mehnat miqtosorining ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$\mathbf{T = Is/Q}$$

Bu mehnat sig'imining korxona miqyosida o'lchanishidir makrodarajada esa mehnat sig'imining uch turi bo'ladi: texnologik, to'la va xalq xo'jaligi mehnat sig'imi. Mehnat sarfini hisobga olish jihatiga qarab, u yana uch turga: rejali mehnat, me'yortiv mehnat va haqiqiy (amaldagi) mehnat sig'irlariga bo'linadi. Mehnat sig'imi bevosita sarf (asosiy xodimlar sarf qilgan mehnat) bo'yicha, to'la sarf (yordamchi xodimlar sarf qilgan mehnat) bo'yicha hamda umumiy ijtimoiy mahsulot yoki milliy daromad qiymatiga nisbati bilan belgilanadi. Ayrim komplekslar va ularning tarmoqlarida, korxonalarda esa, moddiy sarflar miqdorining qiymatiga nisbatan belgilanadi:

Fond qaytimi (G'_k) va fond sig'imini (G'_s) aniqlash formulasi quyidagicha:

$$\mathbf{G'_k = Q/F}$$

Bu yerda: Q- mahsulot hajmi, qiymat pul ko'rinishida;

F — asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati.

$$\mathbf{G'_s = F/Q}$$

Fond qaytimi qanchalik yuqori va fond sig'imi qanchalik past bo'lsa, ishlab chiqarish va mehnat qurollaridan foydalanish samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi va aksincha. Mashina va uskunalardan unumli foydalanish, ishlab chiqarish

texnologiyalarini takomillashtirish hamda xodimlar malakasini oshirish, fond qaytimini ko'paytirishshshg muhim zahirasi hisoblanadi.

Bozor sharoitlarida korxona xo'jalik faoliyati samaradorligining umumlashtiruvchi yoki mezon ko'rsatkichi sifatida rentabellik yoki kapitalning daromadlilikini qabul qilish mumkin. Bu ko'rsatkich quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$R = (G'/A_k) \cdot 100$$

Bu yerda: R - rentabellik, xo'jalik faoliyatining natijasini foyda shaklida ko'rsatadi va foizlarda o'lchanadi;

G' - korxonaning balans foydasi;

A_k - avanslangan kapital (asosiy va aylanma).

Nisbatning kattalashishi mehnat, moliya, texnologiya va moddiy resurslaridan unumliroq foydalanishni anglatadi. Chunki aynan ular ishlab chiqarish hajmi va xarajatlari, mahsulot bahosiga ta'sir o'tkazadi. Xo'jalik faoliyati material xarajatlar bilan yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan joylarda samaraliroq bo'ladi.

Korxona rentabelligini aniqlashda ba'zida korxona olgan umumiy foyda emas, balki mahsulot tannarxini pasaytirish hisobiga olinuvchi foyda ulushidan foydalaniladi. Bunday yondashuv korxonani ishlab chiqarish mahsuldorligini oshirish, ishlab chiqarish quvatlaridan tejamkorlik bilan ratsional tarzda foydalanish, natijada esa mahsulot ishlab chiqarishga sarflanuvchi barcha xarajatlarni kamaytirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar sari chorlaydi. Yuqorida keltirilgan xo'jalik samaradorligini baholash usullari va ko'rsatkichlaridan tashqari bugungi kunda amaliyotda O'zbekiston Respublikasi Davlat Mulk Qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan korxonalarning iqtisodiy nochorlik belgilarini aniqlash uchun mezonlar tizimi ham qo'llaniladi. Ularning qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- to'lov qobiliyati koeffitsienti ($K_{tk.}$);
- xususiy va qarzga olingan mablag'lar nisbati koeffitsienti (K_{xkm});
- moliyaviy mustaqillik koeffitsienti ($K_{mm.}$);
- xususiy aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsienti

(K_{xam}). Bu ko'rsatkichlar bir karashda mahsulot ishlab chiqarish sohasiga, demak, ishlab chiqarish samaradorligiga aloqasi yo'qtsay tuyuladi. Aslida esa aynan ular orqali korxonaning samarali faoliyatini anglatuvchi iktisodiy va moliyaviy barqarorlik aks ettiriladi. Bundan tashqari, mahsulotning material sig'imi, fond qaytimi, mehnat unumdorligi va rentabellik ko'rsatkichlari, ishlab chiqarishni rejalashtirish va tahlil qilishda qo'llansa, mezonlar tizimi yordamida esa korxonalar o'zlarining faoliyat yuritish qobiliyatini ko'rsatadi hamda turli xil muammoli vaziyatlarda xo'jalik sudlarida o'z manfaatlarini himoya qiladi.

To'lov qobiliyati koeffitsienti ($K_{tk.}$) korxonaning debitorlar bilan o'z vaqtida hisob-kitob kilish hamda tayyor mahsulot va boshqa moddiy vositalarini sotishning qulay sharoitlarda sotish orqali baholanadigan to'liq imkoniyatlarini ko'rsatadi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{T.K} = (A_2 - M_{u.d.k})(P_2 - I_{KK})$$

Bu yerda: A_2 — aylanma aktivlar (ishlab chiqarish zahiralari, tayyor mahsulot, pul mablag'lari, debitorlik qarzlari va hokazolar);

P_2 — majburiyatlar (kisqa muddatli qarzlari, qisqa muddatli kreditlar, byudjet oldidagi qarzlari, kreditorlik qarzlari va hokazo);

$M_{u.d.k}$ — muddati o'tib ketgan debitorlik qarzlari;

I_{kk} — uzoq muddatli qarz va kreditlar.

korxona moliyaviy mustaqilligining kamayishi (ko'payishi), kelajakda moliyaviy qiyinchiliklarga uchrash xavfining kuchayishi (pasayishi) haqida ma'lumot beradi hamda korxona o'z majburiyatlari oddida javob berishining kafolatlarini belgilab beradi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{MM} = P / IB$$

Bu yerda: IB - korxona balansi aktivi yoki passivining yakuni.

Ko'rsatkichlar tizimini tayyorlagan mualliflar tomonidan korxonaning to'lovga qobiliyatligi yoki nochorligini aniqlovchi o'lchamlar belgilab berilgan. Masalan, to'lov qobiliyati koeffitsienti hamda xususiy va qarzga olingan mablag'lar nisbati koeffitsienti 2 dan kichik bo'lsa ($K_{t\ k} < 2$; $K_{xkm} < 2$), moliya-viy mustakillik koeffitsienti 0,5 dan kichik bulsa ($K_{m.m} < 0,5$), xususiy aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsienti 0,1 dan kichik bo'lsa ($K_{xam} < 0,1$) korxonalar nochor deb topiladi.

Ishlab chiqarish-texnik vazifani hal etishning biror variantining ijtimoiy-iqtisodiy afzalligini asoslab berish, taqdim etilgan variantlardan eng samaralisini tanlab olish maqsadida aniqlanadigan samaradorlik qiyosiy samaradorlik deb ataladi. Qiyosiy samaradorlik ikki va undan ortiq variantni taqqoslash va shu asosda bir variantning boshqa variantlardan ustunligi va optimalligini aniqlab beradi.

Optimal variantni tanlash hamda uni asoslash uchun qo'shimcha kapital mablag'larning qoplanish muddati yoki qiyosiy samaradorlik koeffitsientini hisoblab chiqish va ular miqtsorini me'yortiv qiymati bilan taqqoslash kerak.

Xalq xo'jaligida yangi texnika, ixtirolar va ratsionalizatorlik takliflaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini belgilash metodikasida samaradorlikning me'yortiv koeffitsienti xalq xo'jaligining hamma tarmoqlari uchun 0,15 ga teng qilib olingan.

Keltirilgan xarajatlarni aniklash eski texnika o'rniga yangisini yaratish va ko'llash natijasida hosil bo'ladigan iqtisodiy samarani baholashga xalq xo'jaligi nuktai nazaridan yondashishni taqozo etadi.

Yillik iqtisodiy samara — bu, yangi tsxnika, texnologiya va progressiv mahsulot turlarining, doehnat va ishlab chiqarishni tashkil etishning iqtisodiy

samaradorligini tahlil etish va baholashda qo'llaniladigan muhim ko'rsatkichlardan biridir. Bu ko'rsatkich qiyos qilinadigan variantlar bo'yicha sarflangan xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida quyidagi formula yordamida hisoblab chiqiladi:

$$Y = [(T_1 + E_n * K_1)] - (T_2 + E_n * K_2) \cdot A_2$$

Bu yerda: Y — yillik tejam;

T₁ — yangi texnika bo'yicha tadbirlar joriy qilingungacha bo'lgan mahsulot yoki ish birligining tannarxi (so'm hisobida);

T₂ — shuning o'zi, tadbirlar joriy kilingandan so'ng (so'm hisobida);

K₁ — tadbirlar joriy qilingungacha mahsulot birligiga sarflangan kapital mablag'lar miqdori;

K₂ — shuning o'zi, tadbirlar amalga oshirilgandan so'ng;

A₂ — yangi tadbirlar amalga oshirilgandan boshlab tayyorlanadigan yillik mahsulot yoki ishlarning natura birligi.

E_n — kapital xarajatlarning me'yordagi qiyosiy samaradorligi koeffitsienti.

U yangi kapital qo'yilmalarning minimal darajadagi iqtisodiy samaradorligini hamda bir so'mlik kapital qo'yilma bir yilda mahsulot tannarxini necha tiyinga kamaytira olishni bildiradi. Masalan, korxona tarmog'i uchun belgilangan samaradorlik koeffitsienti me'yorsi 0,15 bo'lsa, bu shu tarmoqda har bir so'm kapital qo'yilmalar mahsulot tannarxining pasayishi hisobiga eng kami bilan 15 tiyinlik tejam, foyda berishi zarur. Samaradorlik koeffitsienti «0»dan «1»ga qancha tez intilsa, samaradorlik shuncha yuqori, xarajatlarning rejali qoplanish muddati esa shuncha qisqa bo'ladi.

Ishlab chiqarishning samaradorlik darajasi xilma-xil, bir-biriga bog'liq bo'lgan omillar ta'sirida tashkil topadi va shakllanadi. Har bir kompleks, tarmoq va korxona uchun uning texnik-iqtisodiy xususiyati sababli samaradorlikni oshirishning o'ziga xos omillari mavjud.

Fan va texnikaning shiddatli rivojlanayotgan hozirgi sharoitida zamonaviy ishlab chiqarish vositalarini amaliyotga kiritish iqtisodiy samara bilan bir qatorda og'ir jismoniy mehnatni mashinalar mehnati bilan almashtirish, ishlab chiqarishda shikastlanish va kasb kasalliklarini bartaraf etish, fondlar va energiya bilan ta'minlanish darajasini oshirish, yuqori malaka talab qiladigan va manfaatdorlikni oshiradigan jozibali kasblarga talabni paydo qilish hamda mavjud kasblarga yoshlarda rag'bat uyg'otish va boshqa ijtimoiy muammolarni ham hal etishi lozim.

Insonni har tomonlama yetuk (barkamol) qilish uchun zamin yaratishni maqsad qilib qo'yish - jamiyatning pirovard ijtimoiy samaradorlik mezonidir.

Ishlab chiqarishning ijtimoiy samaradorligini ifodalovchi bir qancha ko'rsatkichlar mavjud, jumladan, maxsulotlarga talabning qondirilishini tavsiflovchi ko'rsatkichlar, mehnat sharoiti va tabiatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar.

Mahsulotlarga iste'molchilar talabining qondirilishini tavsiflovchi ko'rsatkichlarga quyidagilarni keltirish mumkin:

- mahsulot (ish, xizmat)lar tarkibining iste'molchilar talabiga mos kelish koeffitsienti. Bu ko'rsatkich tovar zahiralarida turib kolgan (o'tmas) tovarlarning hissasi ko'rinishida tavsiflanadi. Bu ko'rsatkichning o'sishi ijtimoiy samaraning pasayayotganidan darak beradi. Erkin iqtisodiyot sharoitida mahsulot (ish, xizmat)ning sifati va uning iste'molchi talabiga mos kelishi uchun kurash korxonalar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi;

- reklama vositasida mahsulot (ish, xizmat)larning mavjud turlari bilan iste'molchilarni tanishtirish darajasi. Hozirgi paytda xaridorni tovarlarning xususiyatlari, sifati va boshqa afzalliklari ko'proq qiziqtiradi. Bu masalalarda esa unga reklama yordam beradi. Uning mahsulot (ish, xizmat)larni iste'molchilarga tanishtirish darajasini o'rganishda turli shakldagi reklamalardan (televidenie, radio va gazetalardan, sportchilardan) foydalanuvchi korxonalar hissasini aniqlash kerak bo'ladi;

- iste'mol savatchasi doirasida iste'molni ta'minlash koeffitsienti va boshqalar.

Ishlab chiqarishning ijtimoiy samaradorligini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlar tarkibida mehnat sharoiti va tabiatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar alohida o'rin egallaydi. Ular asosan, quyidagilardan iborat:

-mehnatni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish darajasi;

-mehnat jarayonlarini robotlashtirish darajasi;

-ishlab chiqarishda ko'llanilayotgan texnologiyalar, asbob-uskunalar va mexanizmlarning ilg'orlik (zamonaviylik) darajasi;

-mehnatni elektrlashtirish darajasi;

-isitish, sovutish, yuklash-tushirish, ko'tarish-yuklash uskunalar va boshqa asboblardan haqiqiy ta'minlanishning me'yorlarga mosligi darajasi;

-bino va inshootlarning davr talablariga javob berish darajasi (ularning zamonaviy loyiha asosida kurilishi, ularda ishlash va dam olish, tibbiy yordam ko'rsatish uchun shart-sharoitlarning mavjudligi);

-o'ralgan, kadoqlangan va idishlarga solingan mahsulotlarning ishlab chiqarilgan jami mahsulotlardagi hisssasi;

-korxonalarning sog'lomlashtirish, sport va maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalari va boshqalar bilan ta'minlanganlik darajasi;

-korxonalarda xodimlar va mutaxassislar safining to'ldirilishi koeffitsienti. Bu haqiqiy ishlovchi xodimlar sonini belgilangan me'yor bilan qiyoslash asosida aniqlanadi;

-korxonalar xodimlarining davolanish va sayohat uchun yo'llanmalar bilan ta'minlanish darajasi;

- xodimlar va mutaxassislar tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishni tashkil etish darajasi;

-ishlab chiqarish jarayonida aqliy mehnat hissasining va ijodkorlikning oshib borishi, mehnat intizomini buzilish hollarining kamayishi, xodimlar qo'nimsizligini pasaytirish va boshqalar.

Qayd etilgan ko'rsatkichlar ijtimoiy samaradorlikning alohida yo'nalishlarini tavsiflaydi. Ular birgalikda hisoblansa va ijtimoiy samaradorlikni baholashda birgalikda qo'llanilsa, ishlab chiqarishning ijtimoiy samaradorligiga to'liq baho berish imkoniyatini tug'diradi.

Ishlab chiqarishning ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari uzviy bog'liq. Ijtimoiy samarani oshirmasdan turib iqtisodiy samarani o'stirib bo'lmaydi va aksincha.

1.3. Ishlab chiqarish korxonasi samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar va ularning xususiyatlari

O'zbekiston korxona korxonalari va butun xalq xo'jaligining ishlab chiqarish faoliyati samaradorligi bir qancha iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish asosida aniqlanishi mumkin.

Ularning eng muhimlari quvvat yoki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan kapital ko'yilmasi miqdori, mahsulot tannarxi, qo'shimcha kapital harajatlarning qoplanish maddatsi, mehnat unumdorligi, mahsulot hajmining ko'payishi hom ashyo va materiallarning birligidan olinadigan mahsulot hajmining ko'payishi yoki bir birlik mahsulot ishlab chiqarishda ularning harajat miqdori va uning belgilangan me'yor (reja) darajasiga nisbatan kamayishi, fond qaytimi, fond rentabelligi, dastgohlar unumdorligi, ish vaqti fondi va korxonaning ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasi va boshqalardir. Ular nihoyatda ko'p va xilma - xildir. Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mehnat resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlari;
- asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichlari;

- aylanma fondlardan, mablag'lardan foydalanish ko'rsatkichlari.

Mehnat resurslari deyilganda inson kuchi tushuniladi, ya'ni ishchi va xodimlar tushuniladi. Korxona tarqiqiyotining muammolari umumiy majmuida uni xodimlar bilan ta'minlash masalasi, ularning manbalari, tayyorlash va qayta tayyorlash shakllarini hamda ulardan oqilona foydalanish masalalarini aniqlash alohida o'rin egallaydi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarini kadrlar (xodimlar) bilan ta'minlash va ulardan oqilona foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Xodimlar o'zlarining bilimi va ilmi, mehnat malakasi, ishlab chiqarish tajribasi va ma'naviyati bilan ishlab chiqarish kuchlarining muhim unsuri hisoblanadi. Ular fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, mehnat unumdorligini, mahsulot sifatini oshirish, tannarxini pasaytirish, asosiy va aylanma fondlardan foydalanishni yaxshilash orqali ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini ta'minlaydilar.

Ishlab chiqarishida nafaqat mehnat qurollari va mehnat buyumlari (ishlab chiqarish vositalari), balki kadrlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan kadrlar ishlab chiqarishni boshqaradilar, joriy va istiqbolga tegishli rejalashtirishni va bashorat qilishni amalga oshiradilar, ishlab chiqarish vositalari va moliyaviy resurslarni harakatga keltiradilar. Kadrlarning bilimi, ilmi, kasbiy mahorati qanchalik yuqori bo'lsa, korxona faoliyatining ishlab chiqarish — iqtisodiy parametrlari shunchalik yuksak bo'ladi. Demak, korxona ishlab chiqarishning ahvoli, holati, rivoji uning kadrlar potentsiali bilan belgilanadi.

Davlat kadrlar siyosatini jamiyat hayotining barcha tomonlariga raxbarlik saviyasini oshirish bilan, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotning barcha sohalarida jamoa tashkilotlarining rahbarlik rolini kuchaytirish bilan bevosita bog'laydi. Davlat va nodavlat tashkilotlari kadrlar bilan ishlashni muttasil nazorat qilib boradilar va mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda kadrlar masalasida Prezident va Vazirlar Mahkamasining yagona yo'lidan og'ishmay yuradilar.

Ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatining har qanday sohasida natijalilik, samaradorlik ko'p jihatdan o'rta bo'g'in kadrlarga bog'liq. Ular rahbarlarning eng ko'p sonli kategoriyasi bo'lib, ishlab chiqarishga hammadan yaqinroq turadilar. SHu boisdan respublikada o'rta bo'g'in kadrlarga adohida ahamiyat beriladi.

Kadrlar siyosatining mazmuni, uni amalga oshirishda amal qilinadigan bir qator tamoyillar mustaqillikka erishilgandan keyin butunlay o'zgardi. Kadrlar ishining usullari, shakllari, bu ishga yondashishning siyosiy va tashkiliy rahbarlik usullari haqidagi qoidalar qaytadan ishlab chiqildi.

Ma'lumki, siyosat kishilar orqali yuritiladi. Har qanday tashkiliy masalalarni siyosatdan ajratish mumkin emas. SHu sababli, odatda xodimlarning ishchanlik va siyosiy xislatlariga; oshkoralikka va xodimlarni ochiq-oshkora tanlashga, rahbarlikning davomiyligiga rioya qilgan xolda ularni o'zgartirib turishga; kadrlarga ishonishga hamda ularga nisbatan qat'iy talabchan bo'lishga; davlatning asosiy vazifalari va xodimlarning shaxsiy kobiliyatlariga muvofiq tarzda kadrlarni joy-joyiga qo'yishga; ularning ajoyib fazilatlarini va kamchiliklarini o'rganishga; xo'jalik va siyosiy rahyuardarning g'oyaviy-nazariy saviyasini muttasil oshirib borishga katta ahamiyat bariladi.

Kadrlar siyosagining dolzarb muammolari Prezident asarlari va nutqlarida nazariy jihatdan chuqur mushohada etilgan va har taraflama asoslab berilgan. Kadrlar siyosati Oliy Majlis tomonidan ko'rib chikilmoqda, ko'pgina qonun va qororlarda o'z ifodasini topmoqda.

1997 yilning avgust oyida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi va ta'lim tizimining aniq strategiyasi yaratildi. Bu dasturning maqsadi - ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tgayyorlash Milliy tizimini yaratishdir.

Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligiga asosiy fondlar juda katta ta'sir ko'rsatadi. Asosiy fond deb, ishlab chiqarish jarayonida uzoq vaqt bevosita va bilvosita qatnashib, moddiy boyliklar yaratishda ishtirok etadigan va tabiiy qiymatini saqlagan holda o'z qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsuloga qisman o'tkazadiganya mehnat vositalariga aytiladi. Ular ish bajarishda, xizmat ko'rsatishda va mahsulot ishlab chiqarishda qatnashadilar, ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish uchun sharoit yaratadilar, mehnat buyumlari va tayyor maxsulotlarni saqlash va ularni bir o'rindan ikkinchi o'ringa tashish kabi ishlarni bajaradilar. Asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish, rejalashtirish, hisob-kitob qilish, ulardan foydalanishning samaradorligini ifodalash uchun juda ko'p ko'rsatkichlar kerak bo'ladi. Ularni bir necha guruhlariga bo'lish mumkin:

- asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymatini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- ulardan foydalanish darajasini, ularning samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- ishlab chiqarish fondi bilan kurollantirish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- integral ko'rsatkichlar.

Bu ko'rsatkichlar tizimida ayniqsa, fond qaytimi ko'rsatkichi va fond rentabellik ko'rsatkichi alohida o'rin egallaydi.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri mavjud ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilashdir. Ulardan samarali foydalanish masalasi ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida yanada dolzarblashadi. SHuning uchun ham O'zbekistonda ulardan har taraflama unumli foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan qanchalik to'la va unumli foydalanilsa, ko'proq mahsulot ishlab chiqariladi, mahsulotning tannarxi kamayadi, korxonaning foydasi va samaradorligi oshadi.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati vaqt birligi ichida belgilangan assortiment va nomenklatura, mavjud dastgohlar, ishlab chiqarish maydonlaridan to'liq foydalangan holda mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini ifodalaydi.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati natura birligida o'lchanadi.

Ishlab chiqarishda turli uskunalardan foydalanish, korxonaning quvvati asosiy texnologik jarayonlarni bajaradigan yetakchi tsexlar, bo'linmalar yoki agregatlarning quvvatlariga binoan hisoblanadi.

Asosiy fondlardan va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishni yaxshilash ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga, kapital mablag' sarflamay, qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishga, mehnat unumdorligi va samaradorlik o'sishiga hamda mahsulot tannarxini kamaytirishga imkon yaratadi. SHuning uchun ham hozirgi sharoitda respublikada ulardan unumli foydalanishga katta e'tibor berilmoqda.

Korxona asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvatlari samaradorligi -gani oshirishda korxonalarda texnologik uskunalarning ish smenasini ko'paytirish katta ahamiyatga ega.

Korxonada turli mahsulotlarni tayyorlash jarayonida moddiy va moliyaviy mablag'larga bo'lgan ehtiyojlar doimo oshib boradi. Korxonalarda asosiy fondlar bilan bir vaqtda mehnat buyumlari ham harakatda bo'ladi. SHu sababli ularni aylanma fondlar deb aytiladi.

Aylanma fondlar — ishlab chiqarish jarayonida bir marta qatnashib, o'z qiymatini tayyor mahsulotga o'tkazib, o'z shaklini ham o'zgartiradigan, butunlay yo'qotib yuboradigan mehnat buyumlaridir.

Aylanma fondlarga ishlab chiqarish jamg'armalari va ishlab chiqarishdagi mablag'lar, tugallanmagan ishlab chiqarish va kelgusi davr xarajatlari kiradi.

Ishlab chiqarish jamg'armalari aylanma fondlarning asosiy qismini tashkil etadi. Ular korxonalarga keltirilgan, lekin ishlab chiqarish jarayonida hali

foydalanilmagan mehnat buyumlari, xususan, xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar, yoqilg'i, asosiy va yordamchi materiallar, energiya, ta'mirlash uchun ehtiyot qismlar, xo'jalik jihozlari va tez yemiriluvchi buyumlardan iborat.

Aylanma fondlarning yana bir qismini tugallanmagan ishlab chiqarish tashkil etadi. Ular ishlab chiqarish jarayoniga allaqachon tushgan, lekin ishlov berish tugamagan mehnat buyumlaridir. Bularga korxona o'zi yaratgan, lekin chala tayyor mahsulotlar va tugallanmagan ishlab chiqarishlar kiradi.

Aylanma fondlarning yana bir qismi kelgusi davr xarajatlari hisoblanadi. Ularga yangi turdagi mahsulotlarni loyihalash, tayyorlash va o'zlashtirish, mutaxassislarni o'qitish va qayta tayyorlash, xonalarni ijaraga

olish, tog'-korxona korxonalariga taalluqli xarajatlardan iboratdir. Bu xarajatlarning hammasi tayyor mahsulotning tannarxiga kiritish evaziga qoplanadi.

Aylanma fondlarning tarkibini iqtisodiy taxlil etish va ularning tarkibiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ularning ta'sir kuchi natijalarini topish, tarmoqlar va korxona taraqqiyotini belgilashga katta yordam byoradi. Aylanma fondlarning tarkibini aniqlash, ulardan foydalanishni yaxshilash yo'llarini belgalash uchun moddiy balanslar tuziladi. Bu balanslar har bir tarmoq ikkinchi tarmoqqa qanday buyumlar yetkazib berishini tavsiflaydi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish va uning asosiy bo'g'ini bo'lgan korxona faoliyati samaradorligini oshirishda moddiy resurslardan oqilona foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Moddiy resurslardan foydalanishning juda ko'p yo'llari mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- moddiy resurslardan kompleks (har taraflama) foydalanish;
- chiqindilardan yoki ikkilamchi xomashyo va materiallardan foydalanish.

Aylanma fondlardan samarali foydalanishda xo'jalik mexanizmining ahamiyati katta. Xususan bunga, xo'jalik mexanizmining rejalashtirish, baholash, moliyalash,

kreditlash, xo'jalik hisobini yuritish, boshqarish, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish kabi elementlari ham ta'sir ko'rsatadi. Aylanma fondlardan oqilona foydalanish uchun raqobatni joriy etish kerak. Raqobat esa, mahsulotni eng sifatash, eng arzon va ko'plab ishlab chiqarish vositasidir. Raqobat bo'lishi uchun bir xil mahsulotni ishlab chiqaradigan korxonalar soni ko'p bo'lishi kerak.

Aylanma fondlardan rejali foydalanishni tashkil qilishda ularning ayrim turlarini mahsulot birligiga sarf etishni ilmiy asosda me'yorlashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Bu ishni bajarish ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish, ishlab chiqarishning rentabelligini oshirish, moddiy texnika ta'minotini tashkil etish, texnika va texnologiyalarni takomillashtirishning asosiy vositasi xisoblanadi. Barcha me'yorlar ilmiy jihatdan asoslangan va o'z xususiyatlari bo'yicha davr talabiga javob beradigan bo'lishlari zarur.

Moddiy resurslarni sarflash me'yorlari turlicha bo'lishi mumkin:

1. Foydalanish muddatiga ko'ra me'yorlar:

a) istiqbolli; b) yillik; v) operativ me'yorlar.

2. Qo'llanish miqyosi bo'yicha me'yorlar ikki xil: shaxsiy me'yorlar va rasmiylashgan me'yorlar.

Z. Me'yorlashtirilayotgan mablag'ning detallashtirilish darajasi tayyor mahsulot yoki uning ayrim qismlari bo'yicha ajratilishi mumkin.

4. Materiallarni detallashtirilish bo'yicha yig'ma me'yorlar, material sarfi bo'yicha yiriklashgan me'yorlar bo'lishi mumkin. \

Moddiy resurslarni to'g'ri, oqilona sarflashni me'yorlashtirish uchun ularning tarkibini belgilash katta ahamiyatga ega.

Me'yorlar tarkibida quyidagilar e'tiborga olinadi:

- mahsulot birligiga sarflanadigan foydali xomashyo va materialning miqdori.
- zaruriy texnik chiqindi va boshqalar.

Me'yorlar tajriba, laboratoriya, texnikaviy, analitik, statistik usullar bilan tuziladi.

Korxonalar faoliyatining asosiy va aylanma fondlar hamda aylanma mablag'lar bilan uzviy bog'liqligi alohida ahamiyat kasb etadi. Muomaladagi ishlab chiqarish fondlarining yig'indisi aylanma mablag'larni ifodalaydi. Aylanma mablag'lar 2 ta fondni o'z ichiga oladi:

- aylanma fondlar;
- muomala fondlari.

Aylanma fondlar, o'z navbatida ishlab chiqarish jamg'armasi, tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr xarajatlari va omborlardagi tayyor mahsulotlardan iborat bo'ladi.

Muomala fondlariga jo'natishga yuklangan mahsulotlar va davlat bankidagi pul mablag'lari kiritiladi.

Aylanma mablag'lar doimo harakatda bo'lib, pul va ishlab chiqarilgan tovar shaklida ro'y berishi mumkin.

Korxonaning aylanma mablag'lari kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Chunki ular ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligiga sharoit yaratib beradilar. Aylanma mablag'lari kamayib ketgan korxonalar bankrotlikka yuz tutadilar.

Tashkil etilishi usuliga qarab aylanma mablag'lar me'yorlashtiriladigan va me'yorlashtirilmaydigan mablag'larga bo'linadi.

Me'yorlashtiriladigan aylanma mablag'lar korxonaning uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun kerak bo'lgan mablag'larning minimal miqdoridir. Aylanma mablag'larning aylanish davri 3 qismdan iborat bo'ladi:

1. Mablag'larning ishlab chiqarishdagi jamg'arma shakli;
2. Ishlab chiqarish jarayonidagi shakli;

Z. Tayyor mahsulot yoki hisob-kitob schyotidagi shakli. Me'yorlashtirishning asosiy vazifasi ishlab chiqarish jamg'armalarini, tugullanmagan ishlab chiqarish hajmini, tayyor mahsulot qoldig'ini aniqlashdan iborat.

Me'yorlarga binoan ishlab chiqarish jamg'armalari rejalashtiriladi. Ularning mikdori korxonalarda kamroq, lekin ishlab chiqarish jarayoniga yetarli bo'lishi kerak.

Har bir korxona aylanma mablag'larni saqlash va ulardan oqilona foydalanishni va ularning aylanishini tezlashtirishni ta'minlashi kerak.

Faqat shundagina u samarali ishlagan bo'ladi. Aylanma mablag'larning iqtisodiy samaradorligi ularning doiraviy shaklda aylanishi tezlashishidir.

Bunga erishilganda ortiqcha mablag'larning bo'shashiga va ular boshqa maqsadlarda qo'llanishiga sharoit yaratiladi.

Aylanma mablaglarning aylanish davrini hisoblashni osonlashtirish uchun yildagi kunlar sonini 360 kun, kvartalni 90 kun, oylikni 30 kun deb qabul qilingan.

Korxona ishlab chiqarishida asosiy fondlar bilan bir vaqtning o'zida mehnat buyumlari ham harakatda bo'ladi. SHu sababli ularni aylanma fondlar deb ataydilar. Aylanma fondlarning ashyoviy mazmunini asosiy va yerdamchi materiallar, tugullanmagan ishlab chiqarish, yarimfabrikatlar, ehtiyot qismlar, kam baholi hamda tez to'ziydigan buyum va inventarlar, turli idishlar (taralar) tashkil etadi. Aylanma fondlarga tayyor mahsulot, yo'ldagi mahsulot va hisobdagi pullar ham kiradi.

Aylanma fondlardan foydalanishni yaxshilash mavjud xomashyo va materiallar bilan ishlab chiqarish ko'lamini yuqori darajaga ko'tarish, tarmoqlar o'rtasida yuqori tejimli nisbatlarni (proportsiyalarni) belgilash, ijtimoiy mehnat unumdorligini oshirish va mahsulot tannarxini pasaytirishga imkon yaratadi. Ishlab

chiqarishni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish xom ashyo va materiallardan, yoqilg'i va elektr energiyasidan oqilona foydalanishni talab etadi.

Moddiy resurslarni tejash maqsadida ko'p omillardan foydalanish mumkin. Resurslarni tejashning asosiy ishlab chiqarish — texnik omillariga ishlab chiqarishning texnik darajasini uzluksiz oshirish, texnologik jarayonlarni mukammallashtirish, ishlab boshqarishni yaxshilash, tejamkorlikni stimullardan keng foydalanish kiradi.

Aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtirish juda katta xalq xo'jaligi ahamiyatiga ega. Chunki u pul mablag'larini bo'shatishga imkoniyat yaratadi.

- Aylanma mablag'lar aylanishini tezlashtirishning asosiy yo'llari quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish tsiklining davomiyligini, uzoqligini qisqartirish;
- me'yordan tashqari va oshiqcha zahiralarini yo'qotish;

Korxonaning aylanma mablag'lari kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Chunki ular ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligiga sharoit yaratib beradilar. Aylanma mablag'lari kamayib ketgan korxonalar bankrotlikka yuz tutadilar.

. Aylanma fondlarning ashyoviy mazmunini asosiy va yerdamchi materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish, yarimfabrikatlar, ehtiyot qismlar, kam baholi hamda tez to'ziydigan buyum va inventarlar, turli idishlar (taralar) tashkil etadi. Aylanma fondlarga tayyor mahsulot, yo'ldagi mahsulot va hisobdagi pullar ham kiradi.

2. Ishlab chiqarish korxonasi samaradorligi aniqlovchi ko'rsatkichlar holati va uni baholash

2.1. "Farg'ona Don maxsulotlari" OAJ ning iqtisodiy ko'rsatkichlari taxlili

“Farg’ona Don maxsulotlari” OAJ 1994 yil 28 dekabr kuni Davlat mulk qo’mitasining №784 K-PO sonli buyrug’iga asosan ta’ sis etilgan.

“Farg’ona Don maxsulotlari” OAJ 635897,7 ming so’mlik Nizom jamg’armasiga ega va unda 2119659 dona oddiy aktsiyasi bo’lib, har bir aktsiya qiymati 300 so’mni tashkil qiladi. Jamiyatning mulkida Davlat ulushi 51 foiz, mehnat jamoasi ulushi 5,13 foiz, erkin sotuvdagi ulushi esa, 43.87 foizni tashkil qiladi.

Jamiyatning asosiy ishlab chiqarish faoliyati un va omuxta yem maxsulotlari, non va bulka maxsulotlari, qandolat maxsulotlari, makaron maxsulotlari ishlab chiqarishga qaratilgan.

Jamiyatning boshqaruv organi – Aktsiyadorlarning umumiy yig’ilishi bo’lib, uning vakolatlariga Nizomni tasdiqlash, yillik hisobotlarni, olingan daromadlarni taqsimlash kabi vakolatlar kiradi. Umumiy yig’ilishlar orasida Jamiyat Kuzatuv Kengashi tomonidan boshqariladi.

Jamiyatning joriy xo’jalik faoliyatini boshqarish kollegial ijroiya organi- boshqaruv hayati tomonidan, funktsional departament strukturasi, ya’ni faoliyatning barcha sohalari bo’yicha chegaralangan majburiyatlarni bo’linmalarga yuklatish printsipli asosida amalga oshiriladi (ilova).

“Farg’ona Don maxsulotlari” OAJ ning ishlab chiqarish tarkibi 2, 3 tegirmonlar va omuxta yem ishlab chiqarish tsexlari, shahar markazidagi “Issiq non” tsexi, Qirguli mavzesidagi “Issiq non” tsexi, Marg’ilon shahridagi “Vaxtel” issiq non tsexi, Farg’ona shahar-DKK va Yozyovon tuman DKK shaxobchasi, Marg’ilon don qabul qilish filialidan tashkil topgan.

1-jadval

“Farg’ona Don maxsulotlari” OAJ bo’yicha 2012 yilda ishlab chiqarilgan maxsulotlarning ko’rsatkichlari haqida ma’lumot (“FDM” ma’lumotlari asosida)


№	Maxsulot turlari	O'lchov birli- gi	2012 yil	2011 yil	Farqi	%
1	Un	tn	45574	43154	2420	106
2	Omuxta yem	tn	37017	35144	1903	105
3	Non maxsulotlari	tn	2595	2879	-284	90
4	Makaron	tn	2698	3330	-682	80
5	Qandolat	tn		6	-6	0
6	Urug'lik bug'doy	tn	7643	9103	-1460	84
7	Taqqoslama narxlarda	m.so'm	44147710	40025122	4122588	110
8	Amaldagi narx	m.so'm	41747169	39628833	2118336	105
9	Xalq iste'moli mollari	m.so'm	39788080	36037600	3750480	110

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib tikribdiki, "Farg'ona Don maxsulotlari" OAJda 2012 yilda asosiy maxsulot ishlab chiqarish hajmi o'tgan 2011 yilga nisbatan 2420 tonna yoki 106 % ga ko'p ishlab chiqarilgan bo'lsa, omuxta yem ishlab chiqarish hajmi 2012 yilda 37017 tonna yoki 1903 tonna o'tgan yilga nisbatan ortig'i bilan ishlab chiqarilgan.

Urug'lik bug'doy ishlab chiqarish hajmi ham 2011 yilga nisbatan 1460 kg kam ishlab chiqarilgan. Ushbu ko'rsatkichlarni taqqoslama narxlarda ko'radigan bo'lsak, 2012 yilda 2011 yilga nisbatan 4122588 ming so'm yoki 110% ga ko'p maxsulot ishlab chiqarilganligini ko'rishimiz mumkin. Bunga sabab korxona tomonidan tayyorlanayotgan maxsulotlar bahosida yuzaga kelgan o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Korxonada non, makaron maxsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'tgan 2011 yilga nisbatan mos ravishda 284 va 682 tonnaga kam ishlab chiqarilgan. Qandolat maxsulotlarini ishlab chiqarish umuman to'xtatilgan. Agar korxonaning maxsulot sotish bozorini taxlil qiladigan bo'lsak, "Farg'ona Don maxsulotlari" OAJning

barcha ishlab chiqarilayotgan va sotilayotgan maxsulotlarining bozordagi salmog'i 57,8% ni tashkil etadi. Agar jon boshiga 56,2 kg non maxsklotlari ishlab chiqarilsa, bunda "Farg'ona Don maxsulotlari" OAJ tomonidan ishlab chiqarilayotgan non ulushi 21,2 kg ni tashkil qiladi. Farg'ona shaxrida ishlab chiqarilayotgan un maxsulotlarining 90%, qandolat maxsulotlarining 10% korxonada ishlab chiqariladi. Biroq, yuqoridagi jadval ma'lumotlari bozorda yuqori ulushga ega bo'lgan non, makaron va qandolat maxsulotlarini ishlab chiqarish hajmini kamaytirib yuborgan va korxona o'zining bozordagi mavfeini raqobatchilarga berib qo'ymoqda. Bunga asosiy sabab korxonadagi texnik vositalarning ham jismonan ham ma'naviy eskirganligi va natijada ishlab chiqarish tsexlarining to'xtab qolganligi bilan izohlash mumkin. Korxona ma'muriyati tomonidan 2011 yilda ishlab chiqarishni rivojlantirish va kapital ta'mirlash ishlari rejasi ishlab chiqilgan, biroq bu reja ham amalga oshirilmagan. Unga ko'ra korxona tomonidan jami 1045 mln. So'm miqdorida kapital qo'yilmalar kiritish rejasi amalga oshmagan. SHuningdek, non maxsulotlarini sotish tartibiga e'tibor qaratilsa, "Farg'ona Don maxsulotlari" OAJda maxsulotlarni sotish tizimini quyidagi rasmda ko'rishimiz mumkin(1 -rasm). Rasmdan ko'rinib tuibdiki, non maxsulotlarini sotishni 25% non zavodi, xususiy firmalar, tadbirkorlar tomonidan 40%, issiq non 25%, davlvt ta'minoti 10% ni tashkil etmoqda. Agar korxona non maxsulotlarini 60-70% ni o'z firma do'konlari orqali sotishni tashkil etsa, jamiyat har oyda o'z tovar aylanmasini 40-50 mln. so'mgacha yetkazib,jamiyat ixtiyorida qoladigan savdo chegirmasidan umumiy natijaga qo'shimcha foyda keltirish imkoniyati yuzaga keladi.

Rasmdan ko'rinib tuibdiki, non maxsulotlarini sotishni 25% non zavodi, xususiy firmalar, tadbirkorlar tomonidan 40%, issiq non 25%, davlvt ta'minoti 10% dir.



1-rasm. “FDM” OAJ da non maxsulotlarini sotish tartibi (“FDM” ma’lumotlari asosida)

2-jadval

“FDM” OAJ da xodimlar soni va ish xaqi ma’lumotlari taxlili (“FDM” ma’lumotlari asosida)

Ko’rsatkichlar nomi	O’lchov birligi	2012 yil	2011 yil	Farqi	%
Jami ishchilar soni	kishi	639	668	-29	96
Boshqaruv xodimlari	kishi	20	22	-2	91
Hisobiy ish xaqi	m.so’m	4047462	2937229	1110233	138
O’rtacha ish xaqi	so’m	470503	316648	153855	149
Jami maxsulot summasi	m.so’m	43979461	34133395	9846066	129
Mehnat unumdorligi	m.so’m	65332	59325	6007	110

Agar korxona non maxsulotlarini 60-70% ni o'z firma do'konlari orqali sotishni tashkil etsa, jamiyat har oyda o'z tovar aylanmasini 40-50 mln. so'mgacha yetkazib, jamiyat ixtiyorida qoladigan savdo chegirmasidan umumiy natijaga qo'shimcha foyda keltirish imkoniyati yuzaga keladi(2-jadval).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bugungi kunda jamiyatda 639 ta ishchilar bo'lib, o'tgan yilga nisbatan ular soni 29 taga kamaygan, undan boshqaruvchilar 20 kishini tashkil qilib, 2012 yilda ular soni 2 taga kamaygan. Jamiyatda ishchilarga 2012 yilda 4047462 m.so'm yoki 2011 yilga nisbatan 1110233 m.so'm (138%) ko'p ish xaqi hisoblangan.

SHunga mos ravishda o'rtacha ish xaqi ham o'tgan yilga nisbatan 153855 so'mga ko'payib 470503 so'mni tashkil qildi. Mehnat unumdorligi ham shunga mos tarzda 6007 m.so'mga o'sib, 65332 m.so'mni tashkil etgan (3-jadval).

3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, "Farg'ona Don maxsulotlari" OAJda jami xarajatlar miqdori 2011 yilga nisbatan 9843817 m.so'mga oshib 43578127 m.so'mni tashkil etgan. Maxsulot tannarxi o'tgan yilda 28624162 m.so'mni tashkil etgan bo'lsa, joriy yilda 38064563 m.so'mga, ya'ni 9440401 m.so'mga ko'pqygan. Buni davr xarajatlarining 5672765 m.so'mga o'sganligi bilan izohlash mumkin. 1 so'mlik maxsulot tsarfi ham 99,1 tiyinni tashkil qilib, o'tgan yilga nisbatan 0,3 tiyin o'trtiqcha sarf qilingan. Asosiy faoliyat faydasi 2011 yilga nisbatan 50% ga, 462098 m.so'mga, balans foyda 46958 sumga kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Biroq, shunday bo'lishiga qaramasdan sof foyda 2012 yilda 401334 m.so'mga ko'paygan (2- rasm).

Sof foydaning ko'payganligiga qaramasdan asosiy faoliyat rentabelligi 20% ga, balans foyda rentabelligi 0,6% ga saf foyda rentabelligi 0,3% ga kamaygan.

Demak, korxona ma'muriyati sof foyda hajmini, rentabellik ko'rsatkichlarini oshirish, xarajatlar va 1 so'mlik maxsulot sarfini kamaytirishga qaratilgan

tadbirlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirishga ta'sir qiluvchi omillarni to'g'ri boshqarishni tashkil etishi lozim.


3-jadval

“FDM” OAJ da korxona xarajatlari, foyda va rentabellik ko'rsatkichlari(“FDM” ma'lumotlari asosida)

№	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birli-gi	2012 yil	2011 yil	Farqi	%
1.	Jami xarajatlar	m.so'm	43578127	33734310	9843817	129
2.	Tannarx	m.so'm	38064563	28624162	9440401	133
3.	Davr xarajatlari	m.so'm	5672765	5116602	556163	111
4.	Davr xarajatlarini tannarxga nisbati	%	14,9	17,9	-3,0	83
5.	1so'mlik maxsulot sarfi	tiyin	99,1	98,8	0,3	100
6.	Asosiy faoliyat foydasi	m.so'm	462193	924291	-4622098	50
7.	Balans foydasi	m.so'm	484653	531611	-46958	91
8.	Sof foyda	m.so'm	401334	399085	2249	101
9.	Asosiy faoliyat ren- tabelligi	%	1,2	3,2	-2,0	37,6
10.	Balans foyda renta- belligi	%	1,3	1,9	-0,6	68,6
11.	Sof foyda rentabel- ligi	%	1,1	1,4	-0,3	75,6
12.	Un ishlab chiqarish	%	41,6	39,4	2,2	
13.	Omuxta yem ishlab chiqarish	%	92,5	87,8	4,7	

Mablag'larni o'rganishda pul mablag'larining tahlili alohida o'rmni egallaydi. Bunday mablag'lar hisob-kitob, valyuta schyoti va g'aznadagi pullar tushuniladi. Mazkur mablag'lar to'lov majburiyatlarining bajarilishida birlamchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, hisob-kitob va valyuta schyotidagi mablag'lar mahsulot

yetkazib beruvchilar, pudratchilar, ishchi-xizmatchilar, byudjet, bank, sug'urta va boshqalar bilan bo'ladigan aloqa manbaidir. SHu tufayli bu masala alohida o'rganilishi lozim. SHu yerda o'tgan va joriy yildagi ko'rilgan zararlar ham aks etgirilishi kerak.



2- rasm. “FDM” OAJ da sof foydaning o’sishi. (“FDM” ma’lumotlari asosida)

2.2. “Farg’ona Don maxsulotlari” OAJ ning moliyaviy ko’rsatkichlari taxlili

Korxona mulki va mablag'larning kelib chiqish manbalari balansning passivida ko'rsatiladi. Bular o'ziga qarashli va chetdan jalb qilingan manbalarga ajratiladi. Jalb qilingan manbalarga bank kreditlari va kreditorlik qarzlari kiradi.

Passiv ham xuddi aktiv qism kabi ikkita bo'limdan iborat. Ya'ni balans passivining birinchi bo'limi - «O'z mablag'lari manbalari» deb nomlanib, bunda

ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapital, taqsimlanmagan foyda yoki qoplanmagan zarar, maqsadli tushum va fondlar kelgusi davr sarflari va to'lovlari uchun rezervlar, kelgusi davr daromadlari aks etgiriladi. Passivning «Ustav kapitali» bandida xo'jalik faoliyatini yuritish uchun ajratilgan mablag'lari ko'rsatiladi. Hissadorlik jamiyatlarida esa har bir qatnashchining qo'shgan hissasi ustav fondida ko'rsatiladi. Dividend sifatida taqsimlanadigan sof foyda hajmi ham qo'shilgan hissaga qarab aniqlanadi. Demak, ustav fondi bozor iqtisodi sharoitida yuridik shaxs sifatida korxonaning o'ziga tegishli mablag'i va aksionerlarning qo'shgan hissasidan iborat bo'ladi. Har bir qatnashchi shaxsiy hissasiga qarab korxonaning xo'jalik va moliyaviy faoliyatiga aralashadi. Hamkorlikdagi, xissadorlik, qo'shma va kichik korxonalarning nizom jamg'armasi hajmi qatnashchilar qo'shgan badallar miqdoriga bog'liq bo'ladi.

Passivning II bo'limiga taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) ham kiritiladi. Bu bandning summasi korxonaning olgan foydasi miqdoriga va uning taqsimlanishiga bog'liqdir. Korxona o'z oldidagi foydadan to'lashi lozim bo'lgan majburiyatlarini bajarib bo'lgandan so'ng, qolgan qoldiq kelgusida rezerv sifatida foydalanilishini ko'zlanib qoldiriladi. Taqsimlanmagan foyda bandi o'tgan yillarda foydadan qolgan summalarni ham ifodalaydi. Balansda korxonaning o'z mablag'lari manbai qancha ko'p ulushni egallasa, shunchalik moliyaviy ahvol ishonchli bo'ladi.

Badans passivining ikkinchi bo'limi «Majburiyatlar» deb nomlanib, unda korxonaning uzoq muddatli va joriy majburiyatlari aks ettiriladi. Uzoq muddatli majburiyatlarga - uzoq muddatli bank kreditlari va uzoq muddatli qarzlar va shu kabi uzoq muddatli majburiyatlar kiritiladi. Bank kreditlari ishlab chiqarishni texnik jihozlash, asosiy vositalar sotib olish asosiy foyda tashkil qilish va boshqa ko'pgana istiqbolli loyihalarni mablag' bilan ta'minlash maqsadida olinishi mumkin. Qarzlar bandida esa boshqa korxonalardan (bankdan tashqari) olingan qarz summalari

ko'rsatiladi. Bu bandlarni to'ldirish uchun zarur ma'lumotlar «Banklarning uzoq muddatli kreditlari» va «Uzoq muddatli qarzlari» schyotlar qoldig'idan olinadi.

II bo'lim passivini o'rganish ham katga ahamiyatga ega. Balans passivining ikkinchi bo'limi «Majburiyatlar» deb nomlanib, bu bo'limda qisqa muddatli bank kreditlari va qarzlari, korxona ishchi-xizmatchilari uchun bank kreditlari, tovarlar, bajarilgan ishlar, xizmatlar uchun berilgan veksellar, mehnatga haq to'lash bo'yicha, ijtimoiy himoyalash, sug'urta, ta'minot, mulkiy va shaxsiy sug'urta, byudjet bilan, undan tashqari to'lovlar, shu bilan korxonalari va boshqalar bilan bo'ladigan hisob-kitoblar ko'rsatiladi. Bular tashqari haridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar, ko'zda tutilgan daromadlar, xarajatlar va to'lovlar zahirasi, dargumon qarzlari bo'yicha zahiralar va boshqa qisqa muddatli passivlar ham ushbu bo'limda aks ettiriladi. SHu bo'lim passivida juda ko'p buxgalteriya hisobi schyotlarining kredit qoldig'i keltiriladi. Korxona balansini o'rganishda asosiy e'tibor yil boshida o'tgan davrda mulk va mablag'larni qanchalik o'zgarganligi hamda aktiv-dagi har bir band passivdagi manbalar bilan qanchalik ta'minlaganligiga qaratiladi.

Yangicha ish yuritish sharoitida korxonalar mulkining tarqibini o'rganish va uni ko'paytirish yo'llarini aniqlash xo'jalik faoliyatining tahlilida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, balansga qarab korxona mol-mulki va boyligining tarkibini kuzatish, sof mablag' holatini aniqlash, imkoniyat me'yori o'lchashga yordam beradi. Odatda, korxona mablag'lariga asosan vositalar va oborotdan tashqari aktivlar hamda material (me'yorlashtirilgan) aylanma pul mablag'lari kiradi. Ularning miqdori hissadorlik, hamkorlik, kichik va boshqa korxonalarning katta-kichikligiga, ixtisoslashuvi va bozor sharoiti raqobatlariga bardoshligiga bog'liq.

Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini ham o'rganish va tahlil etish lozim bo'ladi.

Quyidagi jadvalda korxona mulkining hajmi va tarkibi keltirilgan. Uni tuzishda

balans ma'lumotlaridan foydalanib, sof, ishlatishga layoqztli boyliklar holati o'rganiladi. Keltirilgan ma'lumotlar balansning jami summasiga teng bo'ladi.

4-jadval

“FDM” OAJ ning buxgalteriya balansi aktiv moddalari tahlili
(2013-yil yanvar oyi holatiga)

Mol- mulkning tarkibi	Yil boshiga		Yil oxiriga		O'zgarishi (+, -)		
	Summa ming so'm	Salmo- g'i	Summa ming so'm	Salm o- g'i	Summa ming so'm	Salmo- g'i	Yil boshi- ga nisbatan o'sishi %
1	2	3	4	5	6=4-2	7=5-3	8=6/2*100
1.Uzoq muddatli aktivlar	3004014	14,6	6422151	14,9	1418137	0,3	28,3
2.Joriy aktivlar shu jumladan	29235012	85,4	366584493	85	7423481	-0,4	25,4
A) Tovar moddiy zahiralar	22428714	65,5	26598484	61,7	4169770	-3,8	18,6
B) Pul mablag'lari va qisqa muddatli qo'yilmalar	79948	0,23	1437212	3,3	1357264	3,07	1697,7
V)Debitor- lar	6726350	19,6	8627797	20	1896447	0,4	28,2
Balans aktivining JAMI	34239026	100	43080694	100	8841618	-	25,8

Manba: “Farg’ona Don mahsulotlari” ma'lumotlari

Moliyaviy tahlilning muhim xususiyatlaridan biri korxona mulki, zahiralar va xarajatlarni har tomonlama o'rganishdir. Bunday mablag'lar tarkibiga ishlab chikarish zahirolari, ya'ni xomashyo va materiallar, sotib olingan yarim fabrikatlar va komplektlovchi buyumlar, konstruktsiya va detallar, ikkilamchi materiallar va o'rnatilgan asbob-uskunalar, ehtiyot qismlar, parvarish va boquvdagi chorva mollari, urug' va yem-xashak, arzon baholi va tez eskiruvchi buyumlar va boshqalar kiradi. Ular korxonaning' bir me'yorida ishla-shi hamda mahsulot ishlab chiqarishi va shartnoma bo'yicha sotish re-jasini ta'minlashga yetarli bo'lishi lozim. SHuningdek, zahira va xarajatlar tarkibiga o'simlik va chorvachilik bo'yicha tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr chiqimlari, tayyor mahsulot va boshqalar ham kiradi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, biz tahlil qilayotgan FDM aksionerlik jamiyatida o'rganilayotgan joriy davrda jami aktivlar summasi 8841618 ming so'mga yoki 25.8% ga ko'paygai. Aktivlarning ko'payishini ijobiy baholagan holda, ma'lumotlarga e'tibor qiladigai bo'lsak, aktivlarning ko'payishi asosan joriy aktivlarning 7423481 so'mga ortganligi hisobiga bo'lgan.

Korxonaning uzoq muddatli aktivlari ham 1418137 ming so'mga orgganligini ijobiy baholamoq lozim.

Joriy aktivlarning tarkibini o'rganadigan bo'lsak, joriy yil oxirida yil boshiga nisbatan tovar-moddiy zahiralar 18.6% ga ko'paygan, ya'ni bu 4169770 so'mni tashkil etadi. Akstionerlik jamiyatining debitorlik qarzlari ham iil oxiriga kelib 28.2% ga yoki 1896447 ming so'mga ko'payganligini salbiy baholamoq kerak. CHunki, debitorlik qarzining bunday tartibda ortib borishi korxona aylanma mablag'larining aylanishini sekinlashtiradi, to'lov qobiliyatining yomonlashuviga olib keladi. Korxona aktivlari tarkibida asosiy salmoqni tovar-moddiy zahirolari egallamoqda, ya'ni u 62% ga yaqin aktivlar summasini tashkil etmoqda. Bu shundan dalolat beradiki, korxonada me'yordan ortiqcha tovar-moddiy zahirasi

yaratilganligini hamda uning natijasida korxona joriy aktivlarining aylanishi sekinlashishini ko'rsatmoqda. Aktsionerlik jamiyati ma'muriyati mavjud aktivlardan unumli foydalanish choralarini ko'rishi lozim deb hisoblaymiz.

Bozor sharoitida aylanma mablag'lar, zahiralar va tugallanmagan ishlab chiqdrish hajmi eng kam, sof faoliyat qo'rsatadigan sharoitiga yetarli bo'lishi lozim. Tahlilda esa balans ma'lumotlari va materiallarni hisoblovchi schyotlardan foydalaniladi.

Balansning passiv qismida korxoia mablag'larini qoplash manbalari ko'rsatiladi. Bozor iktisodiyoti sharoitida mablag'larni to'ldirish quyidagilardan iborat:

1. O'zlik mablag'larning maibalari.
2. Majburiyatlar.

Bunda eng muhim o'rinni korxonaning o'ziga qarashli ustav qo'shilgan, rezerv, kapitallar, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), maqsadli tushum va fondlar, kelgusi davr sarflari va to'lovlari uchun rezervlar, kelgusi davr daromadlari egallaydi. Ustav kapital korxona ixtiyoridagi doimiy berkitilgan asosiy va aylanma mablag'larning hajmini ko'rsatadi. U turli xo'jalik muomalalari ta'sirida o'zgarib turadi. Bunga foydaning taqsimlanishi hisobiga to'ldirilish, xomiylarning a'zolik badallari, asosiy vositalarning qayta baxolanishi va boshqalar sabab bo'lishi mumkin.

Mablag'larning ko'paytirish manbalari tarkibida foyda alohida o'rinni egallaydi. Foyda hajmining ko'payishi eng avvalo Nizom jamg'armasini to'ldirishga va boshqa ehtiyot jamg'armalari yaratilishga olib keladi. Amortizatsiya va boshqa fondlarning tashkil bo'lishi ham bozor sharoitida mazmunan o'zgarmoqda. 1991 yildan amortizatsiya hisoblashda tezlashtirgan me'yorlar (aktiv turdagi mashinalar, qurilmalar, transport va boshqa vositalar bo'yicha) qo'llanishi va to'liq tiklash qismi bo'yicha amortizatsiya hisoblash asosiy vositalar balans qiymatining mahsulotlar tannarxiga o'tkazib bo'lguncha qadar bajarishlik kabi yangiliklar joriy etildi.

Kredit va boshqa mablag'larga qisqa, o'rta, uzoq muddatga mo'ljalpab olingan kreditlar, o'z muddatida uzilmagan ssudalar va boshqa qarz mablag'lari kiradi. SHuningdek kreditorlar bilan hisoblashishlar va boshqa passivlar ham shu yerda inobatga olinadi. Bunda kreditorlik qarzlardan tashqari byudjetga, sug'urta va mehnat haqi yuzasidan korxonaning qarzlari ko'rsatiladi.

Bozor iqtisodi qonuniyatlari va talabidan kelib chiqqai holda korxonada qarz kam bo'lgani ma'qul. 5-jadvalda korxona mablag'larining manbalari ko'rsatilgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, biz tahlil qilayotgan FDM aksionerlik jamiyatida joriy yilning boshiga nisbatan yil oxirida jami passivlari summasi 8841618 ming so'mga yoki 25,8% ga ortgan. Korxonada mol-mulkii tashkil etuvchi manbalarning bunday tartibda ko'payishini ijobiy holat sifatida bahola moq lozim. Ammo, ushbu manbalar qaysi manbalar hisobiga ko'payganligiga alohida ahamiyat qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ya'ni, manbalarning ko'payishi, o'z mablag'lari manbalari hisobigami yoki qarz manbalari hisobiga ekanligini aniqlash lozim. Aktsioierlik jamiyatining ma'lumotlaridan ko'rinadiki, korxonada joriy yil oxirida o'z mablag'lari manbalari yil boshiga nisbatan 113516 ming so'mga yoki 10.3 % ga o'sgan. Bunday natijalarni korxona uchun ijobiy deb baholamoq lozim. CHunki, o'z mablag'lari man-balarining ko'payishi korxonaning moliyaviy mustaqilligining ortishiga, to'lov qobiliyatining yaxshilanishiga hamda korxonaiing ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga olib keladi.

Amortizatsiya va boshqa fondlarning tashkil bo'lishi ham bozor sharoitida mazmunan o'zgarmoqda. 1991 yildan amortizatsiya hisoblashda tezlashtirgan me'yorlar (aktiv turdagi mashinalar, qurilmalar, transport va boshqa vositalar bo'yicha) qo'llanishi va to'liq tiklash qismi bo'yicha amortizatsiya hisoblash asosiy vositalar balans qiymatining mahsulotlar tannarxiga o'tkazib bo'lguncha qadar bajarishlik kabi yangiliklar joriy etildi.

“FDM” OAJ ning buxgalteriya balansi passiv moddolari tahlili
(2012-yil holatiga)

Mol-mulkning tarkibi	Yil boshiga		Yil oxiriga		O'zgarishi (+, -)		
	Summa ming so'm	Salmo- g'i	Summa ming so'm	Salmo- g'i	Summa ming so'm	Salmo- g'i	Yil boshi- ga nisbatan o'sishi, %
1	2	3	4	5	6=4-2	7=5-3	8=6/2*100
O'z mablag'lari-ning manbalari	11012443	32.2	12145959	28.2	1133516	-4	-10.3
Majburiyatlari SHu jumladan	23226583	67.8	30934689	71.8	7708106	4	33.2
a)Uzoq muddatli majburiyatlar	718403	2	2376745	5.5	1658342	3.5	230.8
b)Joriy majburiyatlar	22508180	65.7	28557994	66.3	6049764	0.6	26.9
Balans passivi-ning JAMI	34239026	100.0	43080644	100.0	8841618	-	25.8

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, korxonada joriy yil oxiriga majburiyatlar summasi 6049764 ming so'mga yoki 26.9% ga ko'paytirgan. Bu esa majburiyatlarning umumiy passivlarda tutgan salmbg'ini 0.6%ga ko'paytirgan. Bundan ko'rinadiki korxonaning to'lov likvidligi ancha pasaygan. Balans passivilagi moddalarga e'tibor qiladigan bo'lsak, asosiy salmoqni, ya'ni 66.3 foizni jami majburiyat manba'lari tashkil etmoqda. Bu korxonaning qaram va moliyaviy barqaror ekanligidan dalolat beradi. Mazkur korxonada hisobot davrida joriy majburiyatlari, ya'ni kreditorlik qarzlari bir qadar ko'payganligini salbiy holat sifatida baholamoq lozim.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning moliyaviy hola-tini tahlil ztish, moliyaviy tahlilning korxona moliyaviy holatini umumiy baholash bosqichidan keyingi eng asosiy bosqich bo'lib, korxonaning moliyaviy mustahkamligi tahlili bosqichi hisoblanadi. Ushbu bosqichda korxonaning aylanma mablag'lariii qoplashga korxonaning o'z mablag'lari yetarli yoki yetishmasligi ham o'rganiladi.

Quyidagi jadvalda zahira va xarajatlarni qoplashga o'zlik manbalarning yetarliligini aniqlash uslubi keltirilgan.

Mazkur jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, biz tahlil qilayotgan FDM aksionerlik jamiyatida hisobot yili boshiga nisbatan yil oxirida 1133512 so'mga o'z mablag'lari maibalari ko'paygan. Aksionerdik jamiyatining uzoq muddatli aktivlari esa yil boshiga nisbatan 1418137 ming so'mga ortgan. Buning natijasida korxonada joriy yil oxiriga kelib tovar-moddiy zahiralarini qoplashga tegishli o'zlik manbalari hajmi 284625 ming so'mga kamaygan. O'zlik manbalarning ko'payishini ijobiy holat sifatida baholamoq lozim. Aksionerlik jamiyatida joriy yil boshida va oxirida uzoq muddatli majburiyatlari bo'lmagan.

Qisqa muddatli majburi yatleri esa yil boshida 11233512 ming so'm bo'lgan bo'lsa, yil oxiriga kelib 1610406 ming so'mni tashkil etgan, ya'ni qisqa muddatli majburiyatlari 4870548 ming so'mga ko'paygan.

Bunday tahlilning zarurligi shundaki, korxonalarning moliyaviy mustaqilliga, barqarorligi, kredit olishga layoqatliligini aniqlashda o'zlik manbalar bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi muhim ahamiyatga egadir. Bunday holat esa korxonaning tovar-moddiy zahiralarini qoplashga tegishli manbalarini qisqarishiga ta'sir etgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning to'lov qobiliyatiga ega bo'lishi muhim va bu uning o'z vaqtida zarur bo'lgan qarzlarni qaytarish imkoniyatlarini belgilaydi. Korxona balansi ma'lumotlarga asoslanib, to'lov qobiliyatining qay ahvoldaligi hisoblanadi.

“FDM” OAJ da TOVAR-moddiy zahiralarni qoplashga tegishli manbalar
bilan ta'minlanganlikning tahlili (ming so'mda)

Ko'rsatkichlar	2012-yil boshiga	2012-yil oxiriga	Farqi (+,-)
1	2	3	4
1.O'z mablag'larining manbalari	11012443	12145955	1133512
2.Uzoq muddatli aktivlar	5004014	6422151	1418137
3.Tovar-moddiy zahiralarni qoplash- ga o'z mablag'lari (1-2)	6008429	5723804	-284625
4.Uzoq muddatli kredit va qarzlar	718403	2376745	1658342
5.Tovar-moddiy zahiralarni qoplash- ga tegishli o'zlik va uzoq muddatli qarz manbalari (3+4)	6726832	8100549	1373717
6.Qisqa muddatli kredit va qarzlar	11233512	1610460	4870548
7.Tovar-moddiy zahiralarni qoplash- ga tegishli jami mablag'lar (5+6)	17960344	24204609	6244265
8.Tovar moddiy zahiralarning jami	22428714	26598484	4169770
9.Tovar-moddiy zahiralarni qoplash- ga o'z manbalarning yetarliligi (+) yoki yetishmashligi (-), (3-8)	-16420285	20874680	-4454395
10.Tovar-moddiy zahiralarni qoplashga o'z va uzoq muddatli qarz manbalarining yetarliligi (+) yoki yetishmashligi (-), (5-8)	-15701882	18497935	-2796053
11.Tovar-moddiy zahiralarni qoplashga jami manbalarning yetarliligi (+) yoki yetishmashligi (- , (7-8)	4468370	2393875	-2674495

Manba: “Farg’ona Don Mahsulotlari” ma’lumotlari

Balans ma'lumotlariga qarab korxonaning aylanma mablag'lari qanday manbalar hisobiga gashkil etilganligi o'rganiladi. Bunday tahlilning zarurligi shundaki, korxonalarning moliyaviy mustaqilliga, barqarorligi, kredit olishga layoqatlilikini aniqlashda o'zlik manbalar bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi muhim ahamiyatga egadir. Bunday holat esa korxonaning tovar-moddiy zahiralarini qoplashga tegishli manbalarini qisqarishiga ta'sir etgan. Mazkur aktsionerlik jamiyatida tovar-moddiy zahiralar hajmi birmuncha yuqori bo'lganligi uchun joriy yil boshida ham, yil oxirida ham tovar-moddiy zahiralarini qoplashga o'z manbalari hamda o'z va uzoq muddatli qarz manbalari 4454395 ming so'mga yetarli bo'lmagan. Faqatgina qisqa muddatli majburiyatlar hisobigagina tovar-moddiy zahiralarini qoplashga jami manbalar 207498 ming so'm yetarli bo'lmagan. Bundan ko'rinadiki, korxonaning moliyaviy barqarorligi joriy yilning boshida ham, yil oxirida ham nobarqaror holatda bo'ltan. Bunday natijalar bozor iqtisodiyoti sharoitida unchalik yaxshi natija deb hisoblanmaydi. SHu sababli ham, korxona ma'muriyati moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash uchun tegishli chora-tadbirlar ko'rish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Korxonalar moliyaviy holatini umumiy baholashdan keyingi moliyaviy tahlil bosqichi bo'lib, korxonalarning moliyaviy mustahkamligi (barqarorligi) tahlili hisoblanadi. Moliyaviy mustahkamlikni tahlil etishdan oldin moliyaviy mustahkamlikning mazmuni to'g'risida kelishib olishimiz lozim.

Iqtisodiy adabiyotlarning ko'pchiligida moliyaviy mustahkamlikka (barqarorlikka) va balans likvidligiga bir xil ta'rif beriladi va aniqlanayotgan ko'rsatkichni yoki moliyaviy mustahkamlik yoki balans likvidligi, ya'ni korxonalarning olingan qarzlarni qaytarib berish qobiliyatiga egalik deb tushuniladi. Moliyaviy mustahkamlik va balans likvidligi — bu o'z mazmuniga ega bo'lgan ikki xil moliyaviy ko'rsatkichlar bo'lib, korxonalar moliyaviy faoliyatini har xil nuqtai nazardan ifodalaydi. Bu haqda respublikamizning eng yirik iqtisodchi olimlaridai

biri hurmatali ustozimiz E.Akromovning «Korxonalarining moyaiyaviy holatining tahlili» deb nomyaangan o'quv qo'dyaanmasida shunday deyiladi:

Moliyaviy mustahkamlik ko'rsatkichi kompleks sifatidagi ko'rsatkich bo'lib, u:

- korxonalarning murakkab bozor munosabatlari davrida ishlab chikarishni saqlanib qolish imkoniyatini;
- korxona mablag'laridan erkin ravishda foydalanish imkoniyatini;
- ishlab chikarishni to'xtatmasdan, mahsulot sotish imkoniyati borligini;
- korxonalar faoliyatining umumiy mustahkamliligini;
- korxonalar faoliyatiga to'g'ri boshqaruvlik qilinayotganlig'i-ni;
- korxonalarda mavjud moliyaviy resurslarni bozor munosabatlarining talablariga javob berishligini;
- korxonalarning zahira va xarajatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qoplovchi manbalar borligi darajasini ko'rsatadi. Demak, moliyaviy mustahkamlik korxonalar moliyaviy resurslarining shakllanishi va ulardan foydalanish bilan aniqlanadi. Korxonaning moliyaviy barqarorligiga korxonalarning butun xo'jalik, ishlab chikarish faoliyatining hamma yo'nalishlari ta'sir ko'rsatadi. Unga ham ichqi, ham tashqi omillar, shart-sharoitlar ta'sir etadi.

Ichki omillar sifatida quyidagilarni ko'rsatitimiz mumkin:

- korxonada ishlab chikarishning barqarorligi;
- ishlab chikarishni tashkil qilish;
- ishlab chikarishni boshqarish;
- korxona ustav shartlarining hajmi;

beradi. Bundan tashqari korxonada majburiyatlarning o'z mablag'lariga nisbatan ulushining pasayganligini ham ijobiy baholamoq lozim, ya'ni bu korxona majburiyatlarining qisqarganligidan dalolatdir. Mablag'lar harakatchanligi esa yil boshiga nisbatan yil oxirida o'sgan. Bu esa korxonada aylanma mablag'larga bo'lgan talabni yanada to'laroq qondirib borish imkonini beradi. Umuman olganda

korxona ma'lumotlari asosida uning moliyaviy koeffitsientlari o'rganilganda, ushbu koeffitsientlarning o'zgarishi ijobiy bo'lgan.

Korxonalar ko'p turdagi iqtisodiy aloqalarni, jumladan, xom ashyo va materiallar sotib olish, tayyor mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan hisob-kitoblarni bajaradi. SHuningdek, davlat byudjeti, moliya, bank, sug'urta va kreditorlar bilan munosabatda bo'linadi. Ularga hisob berishni belgilangan muddatda amalga oshirish, moliyaviy tartib intizomiga rioya qilish katta ahamiyatga ega.

To'lov qobiliyati deyilganda, xo'jalikning muddati kelgan to'lov majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan mablag'larning yetarli yoki kamchiligini aniqlash tushuniladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning to'lov qobiliyatiga ega bo'lishi muhim va bu uning o'z vaqtida zarur bo'lgan qarzlarni qaytarish imkoniyatlarini belgilaydi. Korxona balansi ma'lumotlarga asoslanib, to'lov qobiliyatining qay ahvoldaligi hisoblanadi. Buning uchun, korxonaning to'lash uchun zarur bo'lgan mablag'lari bilan qarz majburiyatlarini solishtirish mumkin.

To'lov mablag'lariga pul mablag'lari, jo'natilgan tovar va mahsulotlar qiymati (hali pul kelib tushmagan), debitor sotishdagi tushum va boshqalar kiradi. SHuningdek qisqa muddatga olingan ssudalar ham vaqtincha to'lov majburiyatlarni amalga oshirish uchun manba bo'lishi mumkin. Qimmatli qog'oz, aktsiya, obligatsiya sotishdan olingan mablag' va qo'shimcha korxonalarda qatnashishdan kelgan daromadlar ham to'lov majburiyatlarini bajarishdagi manba bo'lishi kerak. To'lov majburiyatlariga mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga, byudjet va sug'urtaga, mehnat haqi, turli xil kreditorlarga bo'lgan va boshqa turdagi qarzlarni kiradi. Korxonaning ma'lum bir kundagi to'lov qobiliyatini aniqlash uchun shu muddatdagi to'lov majburiyatlari bilan mablag'lar solishtiriladi.

“FDM” OAJ to'lov qobiliyatining tahlili (2013-yil yanvar holatiga)

To'lash uchun mablag'lar	Satr raqami	Hisobot yili oxiriga summasi, ming so'm	To'lov qarzlari	Satr raqami	Hisobot yili oxiriga summasi, ming so'm
1.Pul mablag'lari, ya'ni hisob raqamidagi pul mablag'lari	330-340	-	1.Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar (qarzar)	610	485756
2.Valyuta mablag'lari	350	1371432	2.Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlari	680	466212
3.Qisqa muddatli investitsiyalar, boshqa pul mablag'lari va joriy aktivlar	360-380	58652	3.Soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar	650	3870622
4.Tayyor maxsulot	170	1191530	4.Mulkiy va shaxsiy sug'urta bo'yicha qarzlari	700	1335862
5.Debitorlik qarzlari	210	8622797	5.Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzar	690	-
			7.Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlari	720	580499
			8.Qisqa muddatli kredit va qarzar	730-740	16104060
			9.Boshqa joriy majburiyatlar	-	2419406
Jami to'lash uchun mablag'lar	xxx	11245411	Jami to'lash uchun qarzlari	xxx	24862417
Qarz to'lov majburiyatlarining ko'pchiligi	xxx	-	To'lov qarzlariidan to'lov mablag'larining ko'pchiligi	xxx	18218227
Balans	xxx	43080644	Balans	xxx	43080644

Manba: Farg'ona don mahsulotlari ma'lumotlari

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, biz tahlil qilayotgan FDM aksionerlik jamiyati joriy davrda to'lov qobiliyatiga ega hisoblanadi. Ya'ni, korxonaning jami

to'lov mablag'lari 4380644 ming so'm bo'lgani holda, jami to'lov qarzlarini 24862411 ming so'mni tashkil qilgan. Bundan qo'rinadiki, korxonada to'lov qarzlariga nisbatan to'lov 18218227 ming so'mga ko'p bo'lgan.

Bu esa korxonaning mutlaq to'lov qobiliyatiga ega ekanligidan dalolat beradi. Bundan tashqari to'lov mablag'dari tarkibiga e'tibor qiladigan bo'lsak, uning asosini mablag'larida debitorlik qarzlarini (8622797 ming so'm) tashkil qilmoqda. Bu shundan dalolat beradiki, korxona ayni vaqtda tez to'lov qobiliyatiga ega emas ekan.

To'lov karzlarining asosini esa bo'lgan qarzlar hamda boshqa shu kabi majburiyatlar tashkil qilmoqda. Bu esa ushbu qarzlarni qisqa muddatlarda to'lab berish lozimligini bildiradi. Korxona ma'muriyati to'lov qobiliyatini yaxshilash uchun mavjud tayyor maxsulotlarini sotish choralarini ko'rish hamda debitorlik qarzlarini undirib olish choralarini ko'rishi lozim. Aks holda to'lov qobiliyati ham pasayadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning to'lov qobiliyatiga ega bo'lishi muhim va bu uning o'z vaqtida zarur bo'lgan qarzlarni qaytarish imkoniyatlarini belgilaydi. Korxona balansi ma'lumotlarga asoslanib, to'lov qobiliyatining qay ahvoldaligi hisoblanadi. Buning uchun, korxonaning to'lash uchun zarur bo'lgan mablag'lari bilan qarz majburiyatlarini solishtirish mumkin.

Korxonalar ko'p turdagi iqtisodiy aloqalarni, jumladan, xom ashyo va materiallar sotib olish, tayyor mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan hisob-kitoblarni bajaradi. SHuningdek, davlat byudjeti, moliya, bank, sug'urta va kreditorlar bilan munosabatda bo'linadi. Ularga hisob berishni belgilangan muddatda amalga oshirish, moliyaviy tartib intizomiga rioya qilish katta ahamiyatga ega.

3. “Farg’ona Don maxsulotlari” OAJ faoliyati samaradorligini oshirish yo’llari

3.1. Jahon moliyaviy-qtisodiy inqirozi sharoitida ishlab chiqarish korxonalari samaradorligini oshirishning asosiy yo’nalishlari

Bitiruv - malakaviy ishining nazariy qismida korxonada ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi omillar mohiyati va ularni amalga oshirish imkoniyatlarini nazariy jihatlarini o’rganilgan edi.

Ishning keyingi bobida esa, ”Farg’ona Don maxsulotlari” OAJ ning moliyaviy-iqtisodiy faoliyati taxlil qilinda va tegishli xulosalar chiqarildi.

Olingan ma’lumotlar natijalarini o’rganib, ishning bu bobida korxonani ishlab chiqarish samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan korxonani va ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish tadbirlarini ishlab chiqish va amalda qo’llash imkoniyatlarini yoritishga harakat qilinadi.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xo’jalik yuritishning bozor tizimi hamda har qanday davrning muhim talabidir. Samaradorlik istalgan korxonaning iqtisodiy barqarorligi va faoliyat yuritish qobiliyatini aks etiradi. Har qanday ishda, jumladan korxonalar faoliyatida samaradorlikning ijobiy natijalarining mavjud bo’lmashligini, boshqacha qilib aytganda, o’voragarchilik, vaqt, kuch va resurslarni yo’qotish bilan izohlash mumkin.

Fan-texnika taraqqiyoti korxonalarning ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini oshirishda muhim omil bo’lib kelgan va hozirda ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan. Mazkur omildan quyidagi yo’llar bilan foydalanish mumkin:

- ishlab chiqarish va mehnatni mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish hamda mexanizatsiyalashtirish;
- asosiy texnologik jarayonlarni robotlashtirish;

- progressiv, mehnat hamda resurslarni yo'naltirilgan texnologik jarayonlarni amaliyotga kiritish va ulardan keng foydalanish;

- xom ashyo va materiallarni zamonaviy turlarini yaratish va ulardan foydalanish;

- ishlab chiqarishni tashkil qilish, rejalashtirish va boshqarish jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, hissoqlash texnikasidan foydalanish;

- ishlab chiqarish va mehnatni ilmiy tashkil qilish.

Amaliyotda fan-texnika taraqqiyotining, jumladan, uning tarkibiy qismlarining ahamiyati va rolini inkor qiluvchi yoki tushunmovchi korxonani topish amrimahol. Biroq ushshbu omilni amalga oshirish uchun faqatgini hohish va ichtaklarning o'zigina yetarli emas. Buning uchun birinchidan, fan – texnika taraqqiyotining ayni paytda zarur bo'lgan yo'nalishlarini izlash va aniqlash, ikkinchidan, pul mablag'larini va boshqa zarur bo'lgan resurslar (investitsiyalar)ni izlab topish, uchinchidan, zamonaviy ilmiy-texnikaviy ishlanmalarga ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot institutlari, konstruktorlik, texnologik va boshqa muassasalar bilan kerakli aloqalarni bog'lash, tshtinchidqn, o'z ilmiy-texnikaviy maqsadlarining samaraliligini hisoblab chiqish talab qilinadi.

Fan-texnika taraqqiyoti so'nggi paytlargacha evolyutsion ravishda rivojlanib kelmoqda edi. Asosiy e'tibor amaldagi texnologiyalrni takomillashtirish, mashina va uskunalarni qisman zamonaviylatirishga qaratilgan edi. Bunday chora-tadbirlar ma'lum bir cheklangan natijalarga olib keladi.

Yangi texnikalarni ishlab chiqish va amaliyotga kiritishdan manqaatdorlik talab darajasida emasdi. Ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishni xorijiy progressiv texnologiyalari ekspluatatorlik belgisi sifatida, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirish esa, ishsizlikning asosi sifatida qabul qilinar edi.

Xorij tajribalariga kapitalistik tajriba deb qaralardi hamda bu tajribalarning keng tarqalishiga yo'l qo'yilmas edi.

Bozor munosabatlari shakllanayotgan hozirgi sharoitda chuqur sifat o'zgarishlari, tamoyillari, yangi texnologiyalar va sznggi avlod texnikasiga o'tish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini fan va texnikaning eng yangi yutuqlari asosida qayta qurollantirish zarur. SHu bilan bir qatorda olimlar, konstruktorlar, muxandis va ishchilarning ijodiy ruhda mehnat qilishlari uchun ijtimoiy va iqtisodiy manfaatdorlikni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Yaponiya korxona va firmalarida ijodiy guruhlar, sifat guruhlarini tashkil qilingan, ya'ni fan-texnika taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lmish universitetlar, ilmiy markaz av laboratoriyalar bilan aloqalar rivojlantirilmoqda. Yaponiyaning bugungi kunda robotlar hamda zamonaviy texnika va texnologiyalarning boshqa turlarini yaratishda birinchi o'rinlarda turishi ham bejiz emas.

Korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini oshirishning muhim omillaridan yana biri sifatida mavjud ishlab chiqarish salohiyati – asosiy va aylanma fondlar, ishchi kuchidan tejamkorlik asosida, iloji boricha unumliroq foydalanishni ko'rsatish mumkin, Bundan tashqari, ularga buyumlashgan mehnat sarflanganligi, ya'ni korxonaning bugungi egalaridan tashqari avvalgi avlod vakillarining ham mehnati mavjudligi bilan izohlash mumkin.

Bozor sharoitlaida ishlab chiqarish salohiyatidan unumli foydalanish zaruriyati haqida qayta ta'kidlashga ehtiyoj yo'q. Birinchidan, bozor vaakumi harakatsizlikni, xo'jasizlikni va yo'qotishlarni kechirmaydi, ikkinchidan, o'z imkoniyatlari va resurslaridan yetarlicha foydalanmaydigan korxona istiqbolga ega bo'lmaydi hamda inqirozga uchrashiga asos yaratadi. SHu sababli barcha turdagi bo'g'inlarda tejamkorlikka rioya qilish har bir korxona faoliyatining muvaffaqiyat qazanishining garovi hisoblanadi.

Korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini oshirishda tashkiliy-iqtisodiy omillar, jumladan, boshqaruv ham muhim o'rin tutadi. Ularning ahamiyati ishlab chiqarish mifyosining o'sishi va xo'jalik aloqalarining murakablashishi bilan ortib boradi. Bu omillar qatoriga birinchi o'rinda, oqilona ishlab chiqarish shakllarini yaratish va mavjudlarini takomillashtirish mumkin.

Boshqaruvda esa, boshqarish, rejalashtirish, iqtisodiy rag'batlantirishning usul va shakllrini, ya'ni korxona faoliyatining butun xo'jalik mexanizmini takomillashtirishda ifodalanadi. Korxona raxbarining ish uslubi va usullari fan-texnika taraqqiyoti va bozor iqtisodiyotiga mos kelishi zarur. Masalan, korxona raxbari bilimi, tajribasi va kasbiy malakasiga ko'ra, oddiy xodimlar va bulinma raxbarlaridan yuqori turishi lozim. Aks holda u jamoani kerakli tarzda boshqara olishi hamda muvaffaqiyatga erishishi va imidjga ega bo'lishi qiyin.

Rejalashtirishda rejaning balanslashtirilishi, ko'rsatkichlar tizimini optimal shakllantirish, rejalashtirilayotgan maqsadlar resurslar bilan ta'minlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa hz navbvtida korxonadagi aqtisodiy faoliyatni kuchaytirishni, rejalashtirish va iqtisodiy hisob-kitoblarni hamda zamonaviy kompyuter texnikasi va uning reja iqtisodiy hisob-kitoblarini amalga oshirishdagi imkoniyatlrini yaxshi biluvchi, savodli va malakali mutaxassislarni tanlashni talab qiladi.

Korxona faoliyatini samarali bo'lishida ishlab chiqarishni intensivlashtirish, ishlab chiqarilayotgan maxsulotlarning turi va sifatini oshirish hamda jahon standartlari darajasiga yetkazish, korxonaning ishlab chiqarish tuzilmasini yaxshilash kabi omillar ham muhim o'rinni egallaydi. Bunga esa zamonaviy mashina va asbob- uskunalar, zamonaviy texnologiyalar, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning ilg'or usullaridan foydalanish orqali erishiladi.

Albatta, yuqorida keltirib o'tilgan omillarni amalga oshirish ma'lum bir resurslar va vaqt sarflashni talab qiladi. Biroq, bu muammolarning

mohiyati va ahamiyatini o'zgartirmaydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, zamon bilan hamnafas holda harakat qiluvchi, barcha faoliyat turlarida tejamkorlikka rioya etuvchi, o'z salohiyatidan unumliroq foydalanuvchi, zamonaviy fan va texnika yutuqlariga tayanuvchi korxona o'zining bugungi kundagi muvaffaqiyatlaridan tashqari, kelajakda yanada yuqoriroq marralarga erishishini, jumladan, bozordagi o'z o'rnini va raqobatchilik muhitida qulay ahvolda bo'lishini ta'minlaydi.

3.2. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash-samaradorlikni oshirishning muhim omili

Prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimov o'z ma'ruzasida "2013 yil va yaqin kelajakka mo'ljallangan dasturimizni amalga oshirishda iqtisodiyotimiz va uning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik hamda texnologik jihatdanyangilashni jadallashtirish va uning kulamini kengaytirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish markaziy o'rin tutishi darkor"¹, deb ta'kidlaganligini yuqorida keltirib o'tgan edik.

Darxaqiqat, 2013 yil uchun chiqilgan 370dan ortiq strategik muhim loyihalarni amalga oshirishni ko'zda tutadigan investitsiya dasturi maqsadlari uchun ajratilgan 13 mlrd. dollarning qariyb to'rtidan uch qismi yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, rekonstruktsiya va modernizatsiya qilish uchun yunaltirilgagligi buning yakkol misolidir.

Demak, bugungi kundagi dunyo bo'ylab hukm surayotgan jaxon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiy soxalarda, jumladan ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiyalash, texnik-texnologik jihatdan zamon talabiga javob

¹ Karimov I.A. Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli isloxotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.

// Xalq so'zi, 2013 yil, 18 yanvar.

beradigan qilmb yangilash, yangi mahsulot turlarini iste'molchi va bozor talabiga mos holda yaratish va ular orqali korxona samaradorligini oshirishga erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bitiruv - malakaviy ishining nazariy qismida korxonada ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi bir qancha omillar mavjudligi haqida fikr yuritilgan edi. Ishlab chiqarish korxonasi samaradorligini oshirish yo'nalishlaridan biri sifatida "Farg'ona Don maxsulotlari" OAJda modernizatsiyalash, texnik-texnologik jihatdan yangilash masalalarini taklif qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan aqtisodiy islohotlar natijasida o'tgan 2012 yilda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda zamonaviy, yuksak texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni tashkil etishni tezlashtirish borasida O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini o'zida mujassam etgan O'zbek modelining eng muhim tamoyillaridan biri bo'lgan davlatning bosh islohotchi ekani haqidagi printsiptan kelib chiqib, davlat tomonidan oqilona, faol investitsiya siyosati olib borildi. Buni o'zlashtirilgan kapital qo'yilmalar miqdoridan ham bilib olish mumkin. Raqamlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2012 yilda moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan qiymati 11 milliard 700 million dollardan ortiq kapital qo'yilmalar o'zlashtirildi, bu 2011 yilga nisbatan 14 foiz ko'p demakdir¹. Iqtisodiyotimizga kiritilayotgan investitsiyalarning yildan-yilga o'sib borishida yurtimizdagi mavjud investitsion sharoit va qulay investitsiya muhiti alohida ahamiyat kasb etayotganini ta'kidlash joiz.

Bugungi kunda mamlakatimizni, avvalo, iqtisodiyotimizni isloh etish, erkinlashtirish va modernizatsiya qilish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan, har tomonlama asosli va chuqur o'ylangan siyosat bizni inqirozlar va boshqa tahdidlarning salbiy ta'siridan himoya qiladigan

¹ Islom Karimov. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. T.: O'zbekiston, 2012 y., 11-bet.

kuchli to'siq, aytish mumkinki, mustahkam va ishonchli himoya vositasini yaratdi¹.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarning investitsion faoliyatini yanada jonlantirish, xorijiy investitsiyalarni, avvalo to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish va ulardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta qurollantirish, yangi ish o'rinlarini shakllantirish va shu asosda milliy iqtisodiyotimizni barqaror va jadal rivojlantirishni ta'minlash maqsadida respublika byudjetidan katta miqdorda mablag'lar ajratilmoqda.

Eng avvalo, modernizatsiya atamasining iazmuniga to'xtaladigan bo'lsak,

Odatda uni texnika, texnologiyaga oid tushuncha deb qaraladi. Jumladan, iqtisodiyotga oid aksariyat lug'atlarda unga quyidagi mazmundagi tarif berilgan: "Modernizatsiya – ob'ektni yangilash, yaxshilash, takomillashtirish, uni yangi talablar va me'yorlarga, texnik shartlarga, sifat ko'rsatkichlariga muvofiqlashtirish, asosan bunda mashina, asbob uskunalar, texnologik jarayonlar modernizatsiyalanadi."

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida real sektor korxonalarini qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda ularni sog'lomlashtirish tadbirlari ham muhim o'rin tutadi. Zero, uzoq davr mobaynida sifatsiz mahsulotni ishlab chiqarish, eskirgan texnika va texnologiya asosida zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarni saqlab qolish iqtisodiyotning sog'lomligiga jiddiy putur yetkazishi mumkin. Bunday korxonalarni bankrot deb e'lon qilish hamda moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tarkibiy o'zgartirish orqali qayta tuzish bu boradagi eng to'g'ri va samarali yechim hisoblanadi.

SHu o'rinda bugungi kunda jahon mamlakatlarining global muammosiga aylangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga e'tiborni qaratish lozim.


¹ Islom Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – 31 b.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari o'z ichiga olgan 2009-2012 yillarga mo'ljallangan dastur ishlab chiqilgan. Unda aks ettirilgan ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish tadbirlaridan biri inqirozning hozirgi sharoitida mamlakatimiz iqtisodiy qudratini yanada oshirish maqsadida 2009-2014 yillarda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik-texnologik yangilash, uning raqobatbardoshligini kuchaytirish, eksport salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan muhim ustuvor loyihalarni amalga oshirish bo'yicha dastur ishlab chiqilgan bo'lib, jumladan, mamlakatimizda 2009-2014 yillarga mo'ljallangan ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta qurollantirish bo'yicha muhim loyihalarni amalga oshirish choralari dasturi umumiy qiymati 42,51 mlrd. doll.dan iborat 852 ta investitsiya loyihasini o'z ichiga oladi. Buning e'tiborli jihati shundaki, dasturdagi jami loyihalardan umumiy qiymati 19,3 mlrd. hajmdagi 138 tasi innovatsion tavsifga ega. Bu esa, mamlakatimiz iqtisodiyotining yaqin kelajakda zamonaviy texnika va texnologiyalarga, ishlab chiqarishning ilg'or usullariga, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslangan, raqobatbardosh iqtisodiyotga aylanishdan dalolat beradi.

SHunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi 4053-sonli «Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonida ko'zda tutilgan iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish, modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayoniga tijorat banklarining mablag'larini kengroq jalb qilishni yo'lga qo'yish tadbirlari muhim hisoblanadi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash – ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yunalish va vositalari bo'lib

quyidagilar hisoblanadi: korxonalardan eskirgan asbob-uskunalarni chiqarish; ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash; mahalliy resurslar asosida ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish; ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini kengaytirish; ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va resurslarni tejash; sifatni boshqarish va sertifikatlash tizimini joriy etish; chiqitsiz va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va boshqalar.



3-rasm. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari va vositalari

Modernizatsiyaning keng ma'nodagi mazmunini tushinishda iqtisodchi olim R.Nuriev uning neoklassik va Keynscha talqinlarini farqlaydi. Jumladan, neoklassiklar tomonidan modernizatsiyaga xususiy mulkchilik va demokratiyani mustahkamlash sifatida yondashilsa, keynschilar tomonidan, eng avvalo, xo'jalikning asosiy tarmoqlarini qamrab oluvchi tarkibiy o'zgarishlar sifatida tushuniladi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilashni amalga oshirish uchun faol investitsiya siyosatini olib borish bugungi kunning dolzarb masalalarini hal qilishning samarali omillaridan biridir.

O'tgan 2012 yilda inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda investitsiyalarni jalb etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiyalash, texnik-texnologik jihatdan qayta jihozlash hal qiluvchi ustuvor vazifaga aylandi. Umuman olganda, modernizatsiya an'anaviy jamiyatdan industrilashgan va yirik mashinalashgan ishlab chiqarishga hamda ijtimoiy jarayonlarni qonunlarga tayangan holda oqilona boshqarishga asoslangan jamiyatga o'tish jarayonini namoyon etadi.

Bundan ko'rinadiki, modernizatsiya juda keng tushuncha bo'lib, bugungi kunda uni jamiyat hayotining turli jabhalarini tubdan o'zgartirish, yangilash, bu borada taraqqiyotni jahondagi mavjud ilg'or andozalar tomon yo'naltirish va takomillashtirish jarayonlarining majmui sifatida ifodalash mumkin. Bugungi kunda modernizatsiyalash jarayonlari mamlakatimiz hayotining deyarli barcha jabhalarini qamrab olgan. Ayniqsa, mazkur yo'nalishlar orasida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash muhim o'rin tutadi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ko'rinadiki, mamlakatimizni va xususan ishlab chiqarishni yangilash va modernizatsiya qilish zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

SHu munosabat bilan bitiruv-malakaviy ishini ob'ekti bo'lgan "Farg'ona Don maxsulotlari" OAJ faoliyatini moliyaviy – iqtisodiy natijalari taxlili asosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga doir tadbirlar ishlab chiqish zarur. Bitiruv oldi amaliyoti davrida olib borilgan kuzatishlar va ma'lumotlar taxlili natijalariga ko'ra, korxonada 1- tegirmon 1910 yilda, 2- tegirmon 1962 yilda ishga tushirilgan bo'lib, hozirgi kunda bu ikkala tegirmonni ish faoliyati to'xtatilgan, 3-tegirmon 2004 yilda ishga tushirilgan va hozirda u ishlaymoqda. Omuxta yem ishlab chiqarish dastgohlari 1957 yilda ishga tushirilgan bo'lib, u to'la quvvat bilan ishlaymagan. Quyidagi jadvalda korxonada ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish holati keltirilgan.

8-jadval

"Farg'ona Don maxsulotlari" OAJ ning asosiy ko'rsatkichlari
(“FDM” ma'lumotlari asosida)

№	Asosiy maxsulot turi	O'lchov birligi	To'la quvvatda ishlaganda	2012 yil holatiga ko'ra
1	Bug'doy	Tonna	109500	57153
2	Un ishlab chiqarish	Tonna	133885	45574
3	Omuxta yem ishlab chiqarish	Tonna	40000	37017
4	Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish:			
	a) un	%	100	41,6
	b) omuxta yem		100	92,8
5	Ish o'rnini	kishi	668	639
6	Rentabellik darajasi	%		1,3

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, korxonani to'la quvvat bilan ishlash uchun 1 va 2 tegirmonlarni hamda omuxta yem ishlab chiqarish tsexini modkarnizatsiyalash, yangi texnika-texnologiya bilan qurollantirish asosida ishga tushirish rejasini tuzish va amalga oshirish lozim.

“Farg’ona Don maxsulotlari ” OAJ da asosiy ishlab chiqarishni rivojlantirish, asosiy vositalarni yangilash tadbirlari rejalashtirilgan bo'lib, u asosida quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda (9- jadval).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 1 va 2 tadbirlar amalga oshirilgan. Korxonaga ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan uskuna va jihozlar xaridi uchun rejalashtirilgan mablag' to'la o'zlashtirilgani yo'q.

9-jadval

“FDM” OAJ da ishlab chiqarishni rivojlantirish va kapital ta'mirlash ishlari
rejasi(“FDM” ma'lumotlari asosida)

№	Tadbirlar	Qiymati	Moliyalashtirish manbalari	Muddatlari
1	1 “Marg’ilon Don” filiali xudu- dida 2-5000 tn don saqlashga mo’ljallangan yopiq sig’im	551,9 mln.so’m	Kredit hisobiga	20.05.2011
2	2 1000 tn tayyor maxsulot saqlashga mo’ljallangan yopiq sig’im	170,5 mln.so’m	Kredit hisobiga	20.05.2011
3	2 3000 tn donni saqlashga mo’ljallangan yopiq sig’im	172,6 mln.so’m	Kredit hisobiga	20.05.2011
4	2 Korxonaga ishlab chiqarish uchun zarur uskuna va jihozlar xaridi uchun	150,0 mln.so’m	Kredit hisobiga	Yil davomida
	Jami kapital qo’yilmalar		1045 mln.so’m	

Korxonaga baton va bulka nonlar ishlab chiqarish uchun Turkiyaning Vinkler va Ekmasan hamda Russkiy pechъ va 1ta makaron ishlab chiqaruvchi “Algoritm” rusumli press oʻrnatilgan. Bu dastgohlar asosan korxonaning “Marg’ilon issiq non”, “Marg’ilon Don”, “Qirguli issiq non” filiallariga oʻrnatilib, ular hozirgi kunda ishlayotqda. Lekin yuqorida aytib oʻtilganidek, korxonani 1 va 2 tegirmonlari qayta jihozlanib, ishga tushirilgani yoʻq. SHu sababdan korxona bugungi kunda toʻla quvvat bilan ishlay olmayapti.

Demak, korxonani ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun uni modernizatsiyalash, texnik-texnologik jihatdan qayta jihozlash dasturi asosida tegirmonlarni ishga tushirish zarur. SHunda tegirmonlar toʻla quvvat bilan ishlab, 109500 tonna bugʻdoy qayta ishlanib un tayyorlanadi, 40000 tonna omuxta yem ishlab chiqariladi, ishchilar soni 668 taga yetkaziladi va vaqtincha ishsizlikka barham beriladi.

Xulosa

Korxonalar faoliyati manfaatlari uchun eng yangi imkoniyatlar va zaruriyatlardan biri korxonani texnik-texnologik jarayonlarni yanada rivojlantirish yo'li bilan samaradorlikni oshirish orqali respublika real iqtisodiyoti tarmoqlarida vujudga kelib qolgan taqchillikni oldini olish va istiqbolli taraqqiyotga imkon yaratishdir. Prezidentimiz I.A.Karimov "O'zbekiston innovatsion rivojlanish yo'li bilan ishlab chiqarishni modernizatsiyalash orqali samaradorlikni oshirishning xozirgi zamon modeliga o'tish uchun xamma zarur sharoitlarga ega,"- deb ta'kidlab o'tadi.

Darxaqiqat, fan - texnika taraqqiyoti mavjud texnika va texnologiyani takomillashtirishni, yangicha, ancha samarali va serunum texnika va texnologiyani, yangi xom ashyoni, materiallarni yaratish va ishlab chiqarishga joriy qilishni, mehnatni va ishlab chiqarishni yangicha tashkil qilishni, yangilab berishni o'z ichiga oladi. To'xtovsiz fan-texnika taraqqiyoti eng avvalo ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirib jadallashtiradi va uning samaradorligini oshirishning xal qiluvchi yo'nalishlaridan eng muximidir.

Korxonalarni texnik qayta qurollantirish - alohida ishlab chiqarish turlarini zamonaviy talablarga asosan yangi texnika va texnologiyalarni kiritish, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, eskirgan qurilma va uskunlarni yangilash va almashtirish, ishlab chiqarish tuzilmasi va tashkil etilishini yaxshilash yo'li bilan, korxonaning texnik darajasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasi. U ishlab chiqarish intensivligini kuchaytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilashga ishlab chiqarish korxonasi samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash – ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yunalish va vositalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: korxonalardan eskirgan asbob-uskunalarni chiqarish; ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash; mahalliy resurslar asosida ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish; ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini kengaytirish; ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va resurslarni tejash; sifatni boshqarish va sertifikatlash tizimini joriy etish; chiqitsiz va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va boshqalar.

Bitiruv - malakaviy ishining nazariy qismida korxonada ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar mohiyati va ularni amalga oshirish imkoniyatlarini nazariy jihatlarini o'rganildi.

Ishning keyingi bobida esa, "Farg'ona Don maxsulotlari" OAJ ning moliyaviy-iqtisodiy faoliyati taxlil qilinda va tegishli xulosalar chiqarildi.

Olib borilgan taxlil natijalariga ko'ra korxona samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar ishlab chiqildi.

"Farg'ona Don maxsulotlari" OAJ boshqaruv tizimida shakllantirilgan ishlab chiqarish korxonasi faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni korxonaga tadbiq qilish natijasida ishlab chiqarishni texnik-texnologik qayta jihozlash, yangi mahsulot turlarini yaratish va uni moliyalashtirish manbalarini qidirib topish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini kamaytirish orqali korxona raqobatbardoshligini oshirishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.
// Xalq so'zi, 2013 yil, 18 yanvar.
2. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.
// Xalq so'zi gazetasi, 2012 yil, 21 yanvar.
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.
-T.: O'zbekiston, 2012.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi.
-T.: O'zbekiston, 2010.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T.: O'zbekiston, 2007.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbqiq etishni rag'batlantirish borasida qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida. 2008 y. 15 iyul, PQ-916-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining qarori. Ilm-fanni rivojlantirishni va innovatsion faoliyatni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash choralari to'g'risida.
1992 yil 21 iyul, 337-son.

8. Abdukarimov B.X. va boshqalar. Moliyaviy hisobotni o'qish va taxlil qilish yo'llari. -T.: Iqtisodiyot va xuquq dunyosi,1997.
9. Abdukarimov B.X. va boshqalar. Korxona iqtisodiyoti. -T.: Fan, 2005.
10. Vahobov A.V.,Ibrohimov A.T. Moliyaviy va boshqaruv taxlili. -T.: SHarq, 2005.
11. Muxitdinov X.T. Innovatsion salohiyatni shakllanishi va rivojlanishini taxlil qilishga institutsional yondashuv. "Iqtisod va moliya", №2, 2012.
12. Ortiqov V. Sanoat korxonalari iqtisodiyoti. -T.: Fan, 2009.
13. Xamidulin M. Innovatsiyalar va innovatsion jarayon: masalaning mazmun-mohiyati xususida. "Pul kredit bank", №2, 2012.
14. Fatxutdinov I. Innovatsion menejment. -T.: O'qituvchi,1995.
15. SHarifxo'jaev M.,Abdullaev Yo. Menejment. -T.: O'qituvchi, 2002.
16. Toshniyozov M.,SHarifboev I.,Obidov O. Korxonalar boshqaruv faoliyati asoslari. -T.: O'zbekiston,1995.

Internet saytlari

1. bfa.re.uz/scientific_works/doctors/doctors_eng.htm (olib borlayotgan ilmiy ishlar sayti)
2. [http:// www book.ru](http://www.book.ru) (Kitoblar to'plami)
3. [http://www mf. uz](http://www.mf.uz) (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)
4. <http://www.jahon.mfa.uz>
5. [http:// www proizvodstvo.ru](http://www.proizvodstvo.ru) (metodi proiz)
6. bfa.re.uz/scientific_works/doctors/doctors_eng.htm (olib borlayotgan ilmiy ishlar sayti)
7. [http:// www book.ru](http://www.book.ru) (Kitoblar to'plami)
8. [http://www mf. uz](http://www.mf.uz) (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)

